



UDK:930

Farxod ADILOV,
Toshkent moliya instituti dotsenti, PhD
E-mail: adilov.76@list.ru

O'zMU professori, t.f.d X.Yunusova taqrizi asosida

ILLUMINATION OF MUTUAL RELATIONS BETWEEN THE REPUBLICS OF UZBEKISTAN AND AZERBAIJAN DURING THE SOVIET ERA IN SCIENTIFIC RESEARCH

Annotation

The article examines the issues of socio-political, economic and cultural relations between Uzbekistan and Azerbaijan during the Soviet period in the research of historians and they are scientifically analyzed.

Key words: political, social, cultural, socialism, communication, evidence, sources, literature, scientific research.

ОСВЕЩЕНИЕ ВЗАИМООТНОШЕНИЙ МЕЖДУ РЕСПУБЛИКАМИ УЗБЕКИСТАН И АЗЕРБАЙДЖАН В СОВЕТСКОЕ ВРЕМЯ В НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЯХ

Аннотация

В статье рассматриваются вопросы общественно-политических, экономических и культурных отношений между Узбекистаном и Азербайджаном в советский период в исследованиях историков и они подвергаются научному анализу.

Ключевые слова: политический, социальный, культурный, социализм, коммуникация, свидетельство, источники, литература, научное исследование.

SOVETLAR DAVRIDA O‘ZBEKISTON VA OZARBOYJON RESPUBLIKALARI O‘RTASIDAGI O‘ZARO MUNOSABATLARNING ILMIIY TADQIQOTLARDA YORITILISHI

Аннотация

Maqolada tarixchilar tadqiqotlarida, O‘zbekiston va Ozarbayjon o‘rtasidagi sovet xukumati davridagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarining yoritilishi masalalari o‘rganiladi va ular ilmiy tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: siyosiy, ijtimoiy, madaniy, sotsializm, aloqalar, dalillar, manbalar, adabiyotlar, ilmiy tadqiqotlar.

Kirish. O‘zbekiston bilan Ozarbayjon davlati o‘rtasidagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar uzoq tarixga ega. Ular doimo bir-birlari bilan uzviy aloqalar olib borib, tarix rishtalarini mustahkamlab turganlar. Aynan ana shu tarixiy aloqalar natijalarini davlatlar o‘rtasidagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy munosabatlar doirasida atroflicha o‘rganish va keng ommaga yetkazish bugungi kunning muhim va dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston va Ozarbayjon o‘rtasidagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy munosabatlar tarixi tarixnavisligini tadqiq etish, uning o‘ziga xos jihatlari o‘rganish, bugungi kunga qadar chop etilgan mavjud tadqiqotlarni chuqur tahlil etib, O‘zbekiston tarixining batafsil o‘rganilmagan jihatlari konseptual yondashuv asosida yoritish muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston va Ozarbayjon respublikalari o‘rtasidagi XX asr 40–80-yillari davriy chegarasidagi aloqalar tarixini yoritish masalalari yuqorida ta’kidlaganimizdek bugungi kundagi muhim tadqiqot obyektlaridan biridir. Mavzu ustida olib borilgan izlanishlar mazmun-mohiyatidan kelib chiqib, uni ikki guruhga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Birinchi guruhga sovet hukmronligi davrida nashr etilgan adabiyotlar, ikkinchi guruhga mustaqillik yillarida nashr etilgan adabiyotlar tadqiqot io‘lari kiritildi.

Birinchi guruhga kirgan adabiyotlar[1] haqida shuni ta’kidlash lozimki, bu ishlar sinfiy-siyosiy va mafkuraviy bosimlar hukmron bo‘lgan davrda yozilgan bo‘lib, tabiiyki, shu davr mualliflari o‘rganilayotgan masalani holisona tahlil qilish hamda yoritishda mazkur davr mafkurasiga to‘liq bo‘ysungan edi.

S.Tursunmuhamedov, X.Po‘latovlarning asarlarida sotsialistik musobaqa ommaning ijtimoiy faolligi, sotsialistik

musobaqaning rivojlanish xususiyatlari, kommunistik mehnat sotsialistik musobaqaning eng muhim jihati sifatida qarab chiqiladi. Ayni paytda, sotsialistik ishlab chiqarish munosabatlari, sotsialistik musobaqalar hamda ittifoqdosh respublikalar hamkorligiga oid xorijlik mutaxassislarining munosabatlariga javoblar bitilgan adabiyotlarni ham misol qilib keltirish lozim[2]. Bu asarlar go‘yoki “jahon miqyosida marksizm-leninizm ulug‘vor g‘oyalari bilan tanazzulga uchragan reaksiyon-burjua ideologiyasi o‘rtasida shiddatli kurash davom etayotgan bir vaqtda umri tugab borayotgan kapitalistik tuzumni saqlab qolish, istiqbolli jamiyat – sotsializmi zaiflashtirishga urinib, keng xalq ommasini chalg‘itish maqsadida turli-tuman “nazariyalar o‘ylab chiqarayotgan “imperialistik” davlatlarga qarshi javob tariqasida “sotsializm nazariyadagina emas, balki amalda yaratuvchanlik kuchini butun dunyoga namoyish qilganligini” isbotlovchi yondashuvlardan iborat bo‘lgan asarlardir. Masalan, Bokuda A.S.Sumbatzodaning umumiy tahriri ostida chiqqan maqolalar to‘plami va Toshkentda M.Baratov muallifligida chiqqan kitoblarda “sotsializm siyosiy sohada ham, iqtisodiyot, fan-texnika va madaniyatning muhim sohalarida ham kapitalistik tuzumdan afzal ekanligi” alohida ta’kidlanadi[3].

Shuningdek, ishda mavzuga qisman yaqin bo‘lgan O‘zbekiston SSR va Ozarbayjon SSRning xalqaro[4] yoki boshqa ittifoqdosh respublikalar bilan iqtisodiy, madaniy sohalaridagi hamkorligiga oid ilmiy-tadqiqotlar[5] hamda bir qator maqolalar[6] borligini ta’kidlash lozim. F.Axmedshina o‘z kitobida Ozarbayjon SSRning ittifoqdosh respublikalar bilan mamlakat yagona xalq xo‘jaligidagi o‘zaro aloqalari, ilmiy-texnik hamkorligi masalalariga to‘xtalib o‘tadi. Muallif Ozarbayjon SSR yengil sanoatini qurilishi va uning yangi

texnika va texnologiya bilan ta'minlanishida Penza, Xerson, Ivanovo yengil sanoat mahsuloti ishlab chiqaruvchi zavodlardan kelgan yordamlardan tashqari O'zbekistondan yuborilgan mashinalarga ham alohida to'xtaladi[7]. Shuningdek, muallif O'zbekiston SSR va Ozarbayjon SSR o'rtasidagi qishloq xo'jalik sohasidagi sotsialistik musobaqalarga ham batafsil to'xtab o'tishga harakat qilgan. Aynan sotsialistik musobaqalarga oid maqolalarda ham musobaqalarning "afzalliklari" haqida yozilgan quruq yondashuvlarni ko'rish mumkin. Biroq, musobaqalar o'zaro tajriba almashish, yutuq va kamchiliklarni ko'ra olish darajasida bo'lganligini ham ta'kidlash lozim. Sovet mafkurasi hukmron bo'lgan vaqtda ham nashr etilgan bu maqolalarda O'zbekiston SSR paxta dalalaridagi Ozarbayjondan kelib musobaqalashgan guruhlarining kechikkan paxta ekish ishlari, sug'orish ishlari, hatto g'ozalarni kasallanishiga oid bo'lgan hisobotlari ochiq-oydin berilgan. Maqolalardan guruh a'zolari dalalardan kamchiliklarni o'z hisobotlarida batafsil berib o'tgan degan xulosani qilish imkonini ham beradi.

Tadqiqotchi S.Aliyev XX asrning 20-yillaridagi o'zbek va ozarbayjon xalqlarining adabiy aloqalari va dramaturgiya sohasining taraqqiyotini to'la-to'kis yoritib berishga harakat qilgan[8]. A.Jabborovning ilmiy tadqiqot ishida ikki qardosh xalqning urushdan keyingi yillardagi adabiyot sohasidagi aloqalari muhim tarixiy dalillar asosida o'rganilgan[9]. Madaniy aloqalar tarixini o'rganishda ikki xalq o'rtasidagi asosiy ko'priq vazifasini o'tagan shoir M.Shayxzoda faoliyati tarixchi, adabiyotshunos olimlar tomonidan mukammal o'rganishga harakat qilib kelingan[10].

Ikkinchi guruhga oid adabiyotlarni mustaqillik davrida mavzuga oid chop etilgan ilmiy adabiyot, maqola, izlanish va tadqiqot ishlari tashkil etadi. Bu guruhga tegishli adabiyotlarning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ularda mavzuning ayrim qirralariga oid masalalar xolisona va ilmiy

tarzda o'rganilib, masala mohiyati xususida asosli xulosalar bayon etiladi.

Ikkinchi guruh tarkibiga kiruvchi O'zbekistonning o'zaro hamkorlik aloqalariga oid bo'lgan bir qator monografiyalar[11], maqolalar[12], ilmiy-tadqiqot ishlari[13] masalaga zamonaviy nazariy-konseptual tarzda yondashuv, hamda yangi ma'lumotlarga boyligi bilan katta ahamiyat kasb etadi. Mavzu doirasida faylasuf, tarixchi, sotsiolog, iqtisodchilar bilan hamkorlikda qator ishlar amalga oshirilgan. Bu ishlarga O'zbekistonning sovet hukmronligi yillari davri tarixidan tortib mustaqillik davridagi hamkorlikning u yoki bu jihatlarni yoritgan. Bunday ishlardan avvalo O'zbekistonning xalqaro hamkorligiga oid bo'lgan ishlarni keltirish mumkin. Ular qatorida masalan, S.SH.Sharapova O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining o'ziga xos jihatlarini, E.Z.Nuriddinov O'zbekiston Respublikasining Yevropani turli mamlakatlari bilan munosabatlarni o'ziga xos yo'llarini tadqiq etib o'tganlar. Bu guruhga tegishli adabiyotlarning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ularda mavzuning ayrim qirralariga oid masalalar xolisona va ilmiy tarzda o'rganilib, masala mohiyati xususida asosli xulosalar bayon etiladi, lekin aynan sovet davlati hukmronligi yillarida O'zbekiston va Ozarbayjon munosabatlariga oid bo'lgan birorta fundamental asar uchramaydi. Biroq, mustaqillik yillari O'zbekiston – Ozarbayjon munosabatlariga bag'ishlangan A.N.Adigezalovning ishlari bo'lib, ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy aloqalar, ozarbayjon milliy madaniy markazining ikki xalq o'rtasidagi hamkorlik aloqalarini mustahkamlashdagi o'rni, ta'lim sohasidagi hamkorlik masalalarini yoritgan ilmiy ishlari mavjud[14].

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, 1945–1991 yillardagi O'zbekiston va Ozarbayjon davlatlari o'rtasidagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy munosabatlar tarixchi olimlar tomonidan maxsus mavzu sifatida o'rganilmagan.

ADABIYOTLAR

1. Халклар дўстлигининг буюк кучи. Мақолалар тўплами. – Тошкент. Ўзбекистон, 1974.; Шермухамедов С. Некоторые вопросы теории и практики развития социалистической культуры. – Тошкент. Узбекистан, 1980. – 271 с.;
2. Против буржуазных фальсификаторов истории и культуры Азербайджана. Сб. ст. Ред. А.С.Сумбатзаде. – Баку. Элм, 1978. – С. 220.;
3. Против буржуазных фальсификаторов истории и культуры Азербайджана. Сб. ст. ред. А.С.Сумбатзаде. – Баку. Элм, 1978. – С. 14.; Баратов М. Буржуа дунёкараши – халқаро реакция курали. – Тошкент. Ўзбекистон, 1978. – 6 б.
4. Рустамов У.А. Советский Узбекистан на международной арене. – Ташкент. Узбекистан, 1979. – С. 207.;
5. Агаев А.У. Укрепление дружбы и взаимопомощи трудящихся Азербайджана и Казахстана: автореф. дисс. ... канд. ист. наук. – Баку, 1965.; Абуталипов Ч.А. Развитие международных экономических, культурных и научных связей советского Узбекистана после XX съезда КПСС. – Ташкент, 1965. – С. 49.;
6. Карягинлилар Янгийўлда // Қизил Ўзбекистон. 1947 йил, 23 июль. Мустафаев Д. Биз Ўзбекистон пaxта далаларида нималарни кўрдик? // Қизил Ўзбекистон. 1950 йил, 22 июль.;
7. Ахмедшина Ф.А. Экономическое сотрудничество Азербайджанской ССР с союзными республиками (1946–1980). – Баку. Элм, 1987. – С. 197.
8. Алиев С. Литературные связи и узбекская драматургия (первая треть XX в.). Ташкент. 1973. – С. 155.;
9. Джаббаров А.Д. Узбекско-Азербайджанские литературные связи (послевоенный период): дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1985. – С. 154.
10. Абдуллаев А. Литературно-критические взгляды Максуда Шайхзаде: автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1981. – С. 21.;
11. Шарапова С.Ш. Внешняя политика Республики Узбекистан: культурно-исторический и социальный факторы. – Тошкент. Адолат, 2000.;
12. Нуриддинов Э.З. Суверенный Узбекистан в системе международных отношений // Общественные науки в Узбекистане. – Ташкент, 1996. – №6. – С. 21–30.;
13. Пўлатова С. Мустақил Ўзбекистоннинг халқаро мадания алоқалари ва уларнинг Республика барқарор-лигини мустақамлашдаги аҳамияти (Хорижий шарқ мамлакатлари билан мадания алоқалари мисолида): тар. фанл. номз. ... дисс. – Тошкент. 1994. – 149 б.;
14. Адыгезалов А.Н. Историческое значение Великого шелкового пути в установлении культурных связей между народами Закавказья и Центральной Азии // ЎзМУ Хабарлари. (Вестник НУУз.). – № 1/3. 2014. – С. 47-49.;



Feruza AMONOVA,
O‘zbekiston FA Tarix instituti doktoranti,
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
E-mail: feruza_amonova@mail.ru

Tarix fanlari nomzodi, dotsent S.Tilaboyev taqrizi asosida

ECONOMIC VIEWS OF THE JADIDS OF TURKESTAN

Аннотация

The article describes the ideas of the jadids who came to the square at the end of the XIX – beginning of the XX centuries with a view to historical, socio – economic and cultural, educational situation, to reform new reforms in the country in order to carry out measures for the improvement of living and lifestyle worthy of a person.

Key words: Jadid, economy, market, commercial, cotton, reform, agriculture, industry.

ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ ДЖАДИДОВ ТУРКЕСТАНЕ

Аннотация

В данной статье описываются идеи джадидов, вышедших на площадь в конце XIX – начале XX вв. с целью улучшения исторической, социально-экономической и культурно-образовательной ситуации, проведения новых реформ в стране с целью проводить мероприятия по улучшению быта и образа жизни, достойных человека.

Ключевые слова: Джадид, экономика, рынок, торговля, хлопок, реформа, сельское хозяйство, промышленность.

TURKISTON JADIDLARINING IQTISODIY QARASHLARI

Аннотация

Ushbu maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi tarixiy, ijtimoiy – iqtisodiy va madaniy, ma’rifiy vaziyat taqazosi bilan maydonga kelgan jadidlar insonga munosib yashash va turmush tarzini yaxshilab berish chora-tadbirlarini amalga oshirish uchun mamlakatda yangicha islohotlarni isloh etishga oid ilgari surilgan g’oyalari bayon qilingan.

Key words: Jadid, iqtisod, bozor, tijorat, paxta, islohot, qishloq xo’jalik, sanoat.

Kirish. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasida o‘zgarishlar va turli islohotlarning amalida joriy etilishida jadid taraqqiyparvarlarining o‘rni alohida ahamiyatga ega. O‘lkada siyosiy jarayonlarning murakkab, ijtimoiy turmush darajasining nihoyatda past, iqtisodni rivojlanish yo‘lida mustaqil islohotlarni amalga oshirishda ma’lum cheklovlar mavjud edi. Ushbu vaziyatni yaxshilash maqsadida jadidlar o‘z qarashlarini ilgari surdilar va olib borgan sa’u-harakatlari orqali millatni ma’rifatli qilishga, ilm-fan tarqatish bilan mustaqillik g’oyalari targ‘ib qildilar.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Sadridin Ayniy, Fayzulla Xo‘jayev, Abdulhamid Cho‘lpon singari ko‘plab jadidchilik harakatining yirik namoyandalari XX asr boshlarida milliy matbuotda yoritgan maqolalari va asarlarida Turkiston mintaqasidagi murakkab iqtisodiy va siyosiy vaziyatni tahlil qildilar. Mazkur taraqqiyparvarlar va ularning izdoshlari o‘sha davrning vaqtli matbuot nashrlarida faol ishtirok etdilar. Jumladan, “Oyina”, “Al-izoh”, “Al-isloh” jurnallari, “Turon”, “Buxoroyi sharif”, “Tarjimon”, “Sadoi Turkiston”, “Sadoi Farg‘ona”, “Ulug‘ Turkiston”, “Turk eli” kabi ko‘plab gazetalarda mahalliy xalqning og‘ir ahvoli, chidab bo‘lmas darajadagi ijtimoiy turmushini yoritib, davlat mustaqilligi, maorif-madaniy sohalarini rivojlantirish yo‘lida jiddiy ijtimoiy-siyosiy talablar bilan chiqdilar. Jadidlar orasidan yetuk olimlar, sanoat va zirotchilik sohalarining zamonaviy mutaxassisarlari, madaniyat arboblari yetishib chiqdi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi Turkiston o‘lkasida iqtisodiy qarashlarni tadqiq etishda tarixiy-madaniy davomiylik va izchillik, qiyosiy tarixiy tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020 yil 30 senabrda jadid bobolarimiz faoliyati va ular qoldirgan merosning katta ahamiyatini ta’kidlab, shunday degan edi: “...Bu fidoyi va jonkuyar zotlar butun umrlarini milliy uyg‘onish g‘oyasiga bag‘ishlab, o‘lkani jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, millatimizni g‘aflat botqog‘idan qutqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etdilar. Shu yo‘lda ular o‘zlarining aziz jonlarini ham qurbon qildilar. Ular “Ilmdan boshqa najot yo‘q va bo‘lishi ham mumkin emas” degan hadisi sharifni hayotiy e’tiqod deb bildilar. Milliy istiqloq, taraqqiyot va farovonlikka, avvalo, ma’rifat orqali, dunyoviy va diniy bilim, zamonaviy ilm-hunarlarini chuqur egallash orqali erishish mumkin, deb hisobladilar.

Bu davrda Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydulla Xo‘jayev, Abdurauf Fitrat, Ibrat domla, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Ashurali Zohiriy, Hoji Muin va boshqa yana yuzlab ulug‘ insonlar milliy uyg‘onish va millatparvarlik harakatining oldingi saflarida turdilar. Ular yangi usul maktablari bilan bir qatorda, odamlarning dunyoqarashi va turmush tarzini o‘zgartirishga qaratilgan gazeta-jurnallar, nashriyot va kutubxonalar, teatrlar tashkil etdilar.

Ming afsuski, jadid bobolarimiz o‘z oldiga qo‘ygan ezgu maqsadlarni amalga oshirishga mavjud vaziyat, ijtimoiy tuzum yo‘l bermadi. Ma’rifat fidoyilari o‘sha davrning turli johil kimsalarining tuhmat-malomatlariga duchor bo‘ldilar. Avval chor hukumati, keyinchalik sovet hukumati ularni ayovsiz quvg‘in va qatag‘on qildi. Shu tariqa milliy uyg‘onish va taraqqiyot harakati el-yurtimiz uchun armon bo‘lib qoldi.

Vatanimiz ozodligi va xalqimiz baxt-saodati yo'lida jonini fido qilgan jadiclarning ilmiy-ma'rifiy, adabiy-badiiy merosi biz uchun bugun ham beqiyos ahamiyatga ega"[1].

Darhaqiqat, jadiclar mafkurasi negizida raqobatbardoshazorlar safini shakllantirish jarayonlarini faollashtirish, taraqqiyparvar demokratik institutlarni shakllantirish, o'lkada o'ziga xos milliy rivojlanishni vujudga keltirish kabi vazifalarni o'zida qamrab olgan. Shuning uchun Turkiston o'lkasi iqtisodini rivojlantirish va taraqqiy ettirish borasidagi birinchi qadam millatni o'qimishli va ma'rifatli qilish, aholining barcha qatlamlariga ziyo tarqatish, doimo ozod va mustaqil yashashga intilgan buyuk millat ekanligi ruhiyatini xalqga singdirish, o'lka bundan keyin metropoliya iqtisodiyotiga xom ashyo yetkazib beruvchi makon bo'lib qolmaslikka chaqirishdir. Ikkinchi qadam o'lkada milliy iqtisodiyotni vujudga keltirish, mustaqil iqtisodiyot asoslarini qurish, jahon mamlakatlari bilan tenglik va manfaatlilik tamoyili asosida hamkorlikka kirishish tarafdori edilar.

Turkiston o'lkasi, Buxoro amirligi, Xiva xonligi Rossiya imperiyasi mustamlakasiga aylangach, hududlar asosiy xom ashyo yetkazib beruvchi bazaga aylandi, siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotga cheklovlar qo'yildi. Natijada davr taqozosi yangi islohotlar o'tkazish zarurligini ko'rsatdi.

Iqtisod jamiyatda inson uchun zarur bo'lgan ne'matlar, shart-sharoitlarni yaratish orqali tirikchilikni ta'minlash, ehtiyojlarni qondirishda foydalaniladigan xo'jalik majmuidir. U ishlab chiqarish, ayirboshlash, iste'mol sohasidagi ijtimoiy munosabatlar asosida shakllanadi. Turkistonning iqtisodiy rivojlanish taraqqiyotini davriy nuqtai-nazaridan tahlil qilsak, XIX asrning oxiriga qadar o'lka iqtisodiyoti agrar bosqichda rivojlanib aholi ehtiyojini tahminlashda hunarmandchilik va qishloq xo'jaligi ustuvor bo'ldi. XX asr qo'l mehnatidan texnikaga o'tish jarayonida bo'lgan bo'lsa ham agrar xo'jalik iqtisodning asosini tashkil qilish keldi.

Turkiston taraqqiyparvarlaridan biri Rajabzoda Niyoziy iqtisodga ta'rif beradi: "... Tijorat va ziroatning daraja kamoliga yetkuzmoqdur. Bugungi kunda yer yuzida qancha madaniy va sohibi iqtidor millatlar va davlatlar mavjuddurlar. Hammalari iqtisodni rioya qilmoqdan matarqiy va olamgir bo'lganlar... Ovrupa Rossiyadan qancha fabrika va muncha mashinalar va minglarcha asbob va sanoatlar ko'rsarsiz. Bularning hammasi iqtisodning chetdan amalga kelgan narsalardur. Yevropa davlatlari bugun ikki ilmning soyasiga yorishurlar. Biri siyosiy, ikkinchi(si) iqtisodiydur. Siyosatlar ham iqtisodga bog'liqdur"[2].

Jadiclarning taniqli arboblardan biri Abdulla Avloniy iqtisodni shunday ta'riflaydi: "Iqtisod deb pul va mol kabi ne'matlarning qadrini bilmakni aytilur. Mol qadrini biluvchi kishilar o'rinsiz yerga bir tiyin sarf qilmas, o'rni kelganda so'mni ayamas. Sahovatning ziddi bahillik o'ldig'i kabi iqtisodning ziddi isrofdur..."[3] uning fikricha, iqtisod bu puldir, uni to'g'ri sarflash va mavjud ne'matlarni qadriga yetish muhimdir. O'z sohasining ustasi bo'lgan, mol qadrini bilganlar o'rinsiz sarf qilmaydilar. Chunki iqtisod isrofga qarama-qarshidir. Sahiylik esa qashshoqlikning aksidir.

Har zamonda insonning maqsadi erkin va farovon yashashdir. Ayniqsa, "Hozirgi zamonda maqsadga yetmak uchun, - deb yozadi Abdulla Avloniy, - o'z millatiga xizmat qilmak, xalqg'a maqbul bo'lmak uchun ilm va mol lozimdur. Olamdagi hamma millatlarning hol va qudratlari mol va boyliklari ila o'lchanadur. Har yerda boy millatlar og'ir kelub, pallani bosub, xo'ja o'lganidek faqirlari yengil kelub, qul va asir bo'lib, osilib qoladur. Mol topmakning eng barakatli yo'llari: hunarchilik, ekinchilik, chorvachilik, savdogarlikdur. Bularning har biriga ham bu zamonamizda bilim lozimdur"[4].

Avloniy o'z fikrini yana davom ettirib quyidagicha yakunlaydi: "Bu kunda madaniy millatlar urushlarni tijorat va

sanoatga aylantirdilar va bu soyada g'alaba va raqobat qila boshladilar. Sehrgarlik va jodugarlik ila emas, tijorat sanoatgirlik ila cholishqon Yevropo, Afriko va Osiyoni o'ziga asir va musaxxar qilmoqdadir"[5].

Yuqoridagi ibratli so'zlardan shuni anglash mumkinki, xalqimiz "bo'lsa bo'lar, bo'lmasa g'ovlab ketar" qabilida ish tutmasdan hozirgi zamonga munosib bo'lish kerakligi, buning uchun ilm va ma'rifatli bo'lmoq lozimligi, iqtisodiy rivojlanishga tuganmas sa'y va bitmas g'ayrat orqali erishish mumkinligini, dunyo davlatlari kabi tijorat ilmini chuqurroq egallab boshqalarga tobe' bo'lib qolishdan saqlanish lozimligini uqtirmoqda.

Turkiston taraqqiyparvarlarining yetakchisi Mahmudho'ja Behbudiy ham ijtimoiy muhit, xalqning yashash tarzi, iqtisodiy muammolar haqida yozadi. U ko'plab mamlakat shaharlariga sayohat qilib turli millat vakillari bilan suhbatda bo'lgan. O'zga millat vakillarining bizning Turkiston to'g'risida bildirgan fikrlarini o'z xotiralarida quyidagicha ta'riflaydi: Yaxudiylardan biri derki, "Turkiston eski dunyoning Amriqosidur. Paxta, ma'dan, g'alla har nimarsa bor. Turkiston oltindir. Agarda Rusiya hukumati mone' bo'lmasa, barcha mulkimni sotib, pulig'a Turkistondan yer olib, dehqonchilik etardim. Oltun berib, yer olib, so'ngra olmos ko'tarar edim"[6].

Bundan ta'rifdan ko'rinadiki Turkiston eski dunyoning Amerikasi ekanligi hosildorlik jihatidan ilg'or bo'lib, paxta, g'alla va boshqa xildagi ekinlarni undirish mumkinligini Turkiston mamlakatini yer va iqlimi oltinga teng darajada bo'lganligini anglatadi. Izoh sifatida yahudiyning fikrini davom ettirib aytish mumkinki, mamlakatimiz tuprog'i haqiqatdan ham oltinga teng bo'lgan.

Jamiyat va davlat taraqqiyotida iqtisodiy sohadagi rivojlanishlar muhim o'rin tutishini chuqur anglagan o'zbek xalqining buyuk oydini Abdurauf Fitrat o'zining "Hind sayyohi bayonoti" asarida o'lkaning tabiiy xom ashyo manbalarga juda boy ekanligi, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, milliy hunarmandchilikni jahonning ilg'or mamlakatlaridan texnologiya jalb qilib zamonaviy asosda tubdan qayta shakllantirish, xorijiy sarmoya, ilm - fan, ilg'or texnologiya yutuqlaridan foydalanib milliy iqtisodiyotni yaratishga qaratilgan iqtisodiy qarashlar ilgari surilgan[7].

Buxoro taraqqiyparvarlarining yetakchilaridan biri Sadridin Ayniy Toshkentda nashr etilgan "Turk eli" gazetasining 1917 yilgi sonlarida e'lon qilingan maqolasida Turkiston o'lkasidagi yer osti konlari xususida so'z yuritib quyidagicha fikr bildirgan: "Chet millat olimlarining izlab topg'onlariga qaraganda bizam Turkistonda tosh ko'miri, temir, kumush, oltun, yer moyi (neft) va boshqa har xil ma'danlar bor ekan. Ameriko xalqi, nemis va inglizlar shul ma'danlar orqasida butun yer yuzida eng boy odamlardan bo'lg'on holda, bizlar faqir yashaymiz"[8]. U bu fikrlari bilan mamlakatda mavjud imkoniyatlardan yetarli darajada foydalanilmayotganligini tanqid qilgan.

Cho'lpon ham o'z asarlari va maqolalarida iqtisodiyotni rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor berib o'zlashtirilishi lozim bo'lgan madaniyatlar sirasiga hunarmandchilikni kiritgan. Uning ta'kidlashicha Yevropaning taraqqiyotda ilgari ketishiga imkon bergan qator omillar ishlab chiqarish, ish yuritish madaniyati, xo'jalikni boshqarish usullari, qishloq xo'jaligi, sanoat texnikasi kabilarni nazarda tutadi. "Ovro'paning maktab, madrasa, ilm, fan, sanoat, hunarga o'xshash madaniyatlari sizlarni obod qilar, johillikdan, asorat qulligidan qutuldurodur". Bundan tashqari ilm va ma'rifat orqali sanoat va hunarning zamonaviy shaklini qurmog'imiz ila tojirlarimiz tijoratining salmoqli bo'lishiga xizmat qilmog'i lozimligini ham ko'rsatadi.

Xulosa. Turkiston va Buxoro jadiclarning iqtisodiy qarashlari tahlil qilindanda ular o'z maqolalari va boshqa

asarlarda jamiyatimizdagi iqtisodiy qoloqlik, xalqning jaholatga botganligi hamda diniy mutaassiblikning avj olganligini qattiq qoralashadi. Taraqqiyparvarlarning iqtisodiy

ta'limoti ular faoliyatidagi eng zaif nuqta bo'lgan bo'lsa ham bu merosda bugungi kun uchun ham ibrat bo'ladigan ayrim jihatlar bor.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi // <https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyevning-ituv-30-09-2020>
2. Rajabzoda Niyoziy. Sanoya moliyamiz yoxud faoliyati iqtisodiy // Sadoi Farg'ona (Qo'qon). №66. 1914 yil 2 sentyabr.
3. Abdulla Avloniy. Iqtisod // Tanlangan asarlar. Ikki jildlik. Ikkinchi jild. - Toshkent: Ma'naviyat, 2006. – B. 62.
4. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. - Toshkent: O'qituvchi, 1992. – B.33.
5. Abdulla Avloniy. Iqtisod // Tanlangan asarlar. – B. 63.
6. Mahmudxo'ja Behbudiy. Qasdi safar // Tanlagan asarlar.– Toshkent: “Ma'naviyat”, 1999. – B.69.
7. Abdurauf Fitrat. Hind sayyohi bayonoti // Tanlangan asarlar. I jild. Nashrga tayyorlovchi, so'zboshi va izohlar muallifi: H.Boltaboyev. – Toshkent: “Ma'naviyat”. 2000. – B. 168.
8. Sadridin Ayniy. Turkiston boyligi // “Turk eli” (Toshkent). 1917 yil 4 oktyabr.
9. Cho'lpon. Vatanimiz Turkistonda temir yo'llar // Sadoyi Farg'ona. №26. 1914 yil 6 iyun.



Moxinur ISAKOVA,
Toshkent davlat texnika universiteti tayanch doktoranti
E-mail:moxinura@gmail.com

O‘zMU dotsenti A.Xoliqulov taqrizi asosida

O‘ZBEKISTONDA GILAMCHILIK SOXASI RIVOJIDA XOTIN-QIZLARNING O‘RNI

Аннотация

O‘zbek milliy hunarmandchiligi orasida yaqqol ajralib turuvchi sohalardan biri gilam to‘qish hisoblanadi. Gilamchilik - bu gilam to‘qish kasbi, badiiy hunarmandlik sohasi. Tarixga nazar soladigan bo‘lsak, O‘rta Osiyoda asosan chorvachilik bilan shug‘ullanadigan ko‘chmanchi qabilalar orasida bu hunar turi keng tarqalgan. Bu borada davlat va nodavlat tashkilotlari tomonidan tizimli choralar ko‘rilib, muayyan tadbirlar amalga oshirilib, jumladan, O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi tomonidan ham ushbu masalada tegishli davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda bir qator ishlar bajarildi.

Kalit so‘zlar: milliy, ijtimoiy, gilamchilik, xunarmandchilik, qaror, siyosat, turizm.

В УЗБЕКИСТАНЕ МЕСТО ЖЕНЩИН И ДЕВУШЕК В РАЗВИТИИ ПРОМЫШЛЕННОСТИ ТЕКСТИЛЯ

Аннотация

По мнению экспертов, текстильное производство является одним из значимых направлений мастерства узбекского народного искусства. Гиламчилик – это ремесло текстильной промышленности, область художественного мастерства. Изучая историю, мы видим, что это искусство широко распространено среди кочевых народов, занимающихся в основном портяжным делом в Центральной Азии. В этой связи проводятся систематические меры и совместные акции государства и частных организаций, в том числе совместно с Всеузбекским женским комитетом, нацеленные на развитие данного направления.

Ключевые слова: национальный, общественный, текстильное производство, дизайн, решение, политика, туризм.

THE ROLE OF WOMEN IN THE DEVELOPMENT OF THE CARPET INDUSTRY IN UZBEKISTAN

Annotation

The carpet weaving is considered one of the well-known fields in Uzbek national handicrafts. Carpet weaving is the craft of weaving carpets and is a field of artistic craftsmanship. Looking at history, we can see that this type of art has been widely practiced by the nomadic tribes mainly engaged in charvaqchilik (carpet weaving) in Central Asia. In this regard, systematic training courses are organized by state and non-state organizations, including the Women's Committee of Uzbekistan, and specific measures are implemented.

Key words: economic, social, globalization, innovation, decision, politics, tourism.

Kirish. Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan isloxoatlar jarayonida ayollar rolining ortishi, ayniqsa ularning xunarmandchilik faoliyatlarini xukumatimiz tomonidan ko‘llab kuvvatlanib kelmoqda.

Yurtimizda ayollar va yoshlarni tadbirkorlikka keng jalb etish, oilaviy tadbirkorlik va kasanachilikni rivojlantirish maqsadida 2017 yilda tadbirkor ayollar uchun 1 trillion so‘m, ta‘lim muassasalarini bitirib chiqadigan 10 mingga yaqin yoshlarimiz uchun 60 milliard so‘m kredit mablag‘lari ajratish ko‘zda tutildi 2017 yil “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini” yili davomida “Xalq qabulxonalarida”da tadbirkorlar bilan bo‘lgan muloqotlar, ayniqsa ayollar uy mehnatini, kasanachilikni rivojlanishiga to‘siq bo‘lib kelayotgan muammolarning mavjudligi respublika hukumati tomonidan yangicha yondashuvga asoslangan kompleks chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqishiga sabab bo‘ldi.

O‘zbekiston hududida o‘rta asrlarda gilamchilik uch yo‘nalishda – ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi chorvador qabilalarda, o‘troq (qishloq yoki shahar) aholi orasida, saroy ustaxonalarida rivojlangan. Tadqiqotchilar tomonidan Eron, Kavkazorti, O‘rta Osiyo gilamlarini alohida ko‘rsatib o‘tiladi. Mustaqillik yillarida iqtisodiyotning yangi shakllaridan bo‘lgan kichik va o‘rta biznes xamda xususiy tadbirkorlikda ayollarning ishtiroki katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Jamiyatda ayollarning mehnat bilan bandligiga tasir ko‘rsatadigan ko‘plab omillarni ikkita katta guruhga bo‘lish mumkin Bugungi kunda O‘zbekistonda gilamchilik yaxshi an‘anaga,

ulkan salohiyatga ega soha hisoblanadi. Tahlillarga ko‘ra, hozirgi kunda 25 mingdan ziyod usta, 80 mingga yaqin oila shu sohadan daromad olyapti. Biz yaxshi bilimimiz, xalqimizning qalb qo‘ridan yaralgan zebu zinatlar, bir-biridan bejirim uy-ro‘zg‘or buyumlari eng nozik didli insonlarni ham o‘ziga mahliyo qila oladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Davlatimiz rahbarining 2020 yil 26 iyundagi gilamchilik sohasiga doir qarorini imzolanganidan so‘ng soha rivoji uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Xususan, qo‘lda to‘qilgan gilamlarni eksport qilishda avtomobil, temir yo‘l va havo transportida tashish xarajatlarini 50 foizigacha miqdorda kompensatsiya qilishga subsidiyalar taqdim etish mexanizmi joriy etildi. Qaror ijrosi doirasida “O‘zbekipaksanoat” uyushmasi tomonidan aniq ishlar bajarildi.

Shuningdek, Prezidenti qarori bilan gilamchilik sohasi bilan shug‘ullanadigan tadbirkorlar, uyda gilam to‘qiydigan opa-singillarimiz va kasanachilarga bir qancha imtiyozlar berildi. Jumladan, 2020 yil 15 iyuldan boshlab “O‘zbekipaksanoat” uyushmasi tarkibidagi korxonalariga Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan qo‘lda gilam to‘qish dastgohini xarid qilishga sarflanadigan harajatlarni qoplash uchun – har bir dastgoh uchun bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravari miqdorida subsidiyalar ajratildi. Buning natijasida 2020-2021 yillarda “O‘zbekipaksanoat” uyushmasi tarkibidagi korxonalar

tomonidan mingdan ortiq qo'lda ipak gilam to'qish dastgohlari o'rnatilib, ishga tushirildi.

Shuningdek, bir yarim mingdan ortiq yangi ish o'rinlari yaratilib, xotin-qizlar bandligi ta'minlandi. "O'zbekipaksanoat" uyushmasi va tegishli viloyat hokimliklari bilan birgalikda Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrisabz shaharlarida turistlar tashrif buyuradigan madaniy meros ob'ektlari hududlarida qo'lda to'qilgan gilamlar ko'rgazma-savdo rastalari (do'konlari) tashkil etildi.

Hozirgi kunda hukumatimiz o'z rivojlanish strategiyasida ayollarning jamiyat ishlarida faol ishtirok etishi uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratish borasida keng kamrovli ishlarni amalga oshirmoqda. Gilamchiligi O'zbekiston hududida juda qadimdan rivojlangan. (Xorazmdagi arxeologik qazishlar paytida mil. av. 1-ming yillikka mansub gilam namunasi topilgan). Gilamchilik bilan asosan ayollar shug'ullangan, naqsh (gul)lar (islmiy, girih, hayvon shakllari, turli narsalar tasviri, urug' tamg'asi va b.) ni esa xotirada saqlashgan. Bezaklarida yo'lbaras va tuya izlari, olma guli, uzum zangi, tuya bo'yni, qalqon, o'simliklar ifodalangan, ayniqsa xayvon shoxi tasviri keng tarqalgan. Mujassamotining berkligi, markaziy maydonning naqshli hoshiya bilan o'ralganligi (yo'l-yo'l naqshlar bundan mustasno) O'rta Osiyo gilamlari uchun xos bo'lgan, naqshining aniqligi, go'zal bo'lishi va ranglarining uyg'unligi ularning badiiy qimmatini oshirgan.

Andijon, Samarqand gilamlari, qoraqalpoqlar to'qigan o'tov jhozlari badiiy jihatdan mohirona ishlangan. Andijon gilamlarining pati qisqa, qalin va mayin bo'lgan. Samarqandning rangdor uzun patli julxirs («ayiq teri») gilami o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

XX asrga kelib gilamchilik o'ziga xos tarzda taraqqiy etdi, Gilamchilik markazlarida gilam to'qish rivojlandi, artellar tuzilib, ularga xalq ustalari jalb qilindi (masalan Andijon viloyati Oyim qishlog'idagi gilam to'qish arteli), ularda bir xil naqshli, yuqori sifatli gilamlar, shuningdek, mayda ro'zg'or buyumlari to'qildi.

XX asrning 30-yillari 2-yarmidan mavzuli va tasvirli gilam namunalarini yaratishga urinishlar bo'ldi. Gilamchilik markazlarida Kavkaz gilamlari, an'anaviy turkman gilamlari xilidagi birmuncha soddalashtirilgan gilamlar ishlab chiqarildi, faqat Samarqand gilami (julxirs) o'zining an'anaviy uslubini, rangdorligini saqlab qoldi.

XX asrning 40-50-yillarida O'zbekistonning turli hududlarida gilamchilik markazlari tashkil etildi. (Samarqand, Kitob, 1946; Xiva, Andijon, Termiz, 1947; Shahrisabz, 1949; Xo'jayli, 1954).

Mahalliy ustalar shogirdlar tayyorladi, qad. an'anaviy naqshlar tiklandi. Rassom va hunarmand ustalar hamkorligi natijasida muvaffaqiyatlarga erishildi. Amaliy va mahobatli san'at an'alaridan unumli foydalanilib, dastlabki yangi nusxa Xorazm gilami va unga xos bo'lgan feruza rang zamin yaratildi.

XX asrning 60-yillarida mayda artellar birlashtirilib yangi gilamchilik korxonalarini tashkil etildi, mohir ustalar shu korxonalarda mehnat kila boshladi. Olmaliq, Samarqand, Xiva, Forish, Shofirkon va boshqa joylardagi fabrikalarda an'anaviy naqsh mujassamoti va badiiy jihatdan ijodiy boyitilgan nafis gilamlar bugungi kunga qadar tayyorlanmoqda.

Yurtimiz gilamchilik sohasi tarixiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 1978 yilda Xiva gilam to'qish kombinati tashkil etilgandan so'ng gilamchilik sohasi mahalliy sanoatning muhim tarmog'iga aylandi. Keyinchalik gilam to'qiydigan korxonalar soni ortib bordi. Gilamchilik markazlarida gilam to'qish rivojlandi, artellar tuzilib, ularga xalq ustalari jalb qilindi.

Hozirgi kunda Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand, Navoiy va Buxoro kabi viloyatlardagi

korxonalarda qo'lda to'qilgan gilam va paloslar mahalliy uslub va badiiy usullarda saqlanib kelinmoqda.

Hozirga kunda gilamchilik Farg'ona vodiysida, Qashqadaryo, Surxondaryo, Sirdaryo viloyatlari, Qoraqalpog'istonda rivojlangan. Shuningdek, Samarqand, Urgut, Qo'qon va Xorazm ham Gilamchilik markazlari hisoblanadi.

An'anaviy gilamchilik hunarmandlik turi (uyda to'qiladigan) sifatida rivojlanmoqda. Samarqand va Buxoroning ipak gilamlari ham keng tarqalmoqda. Hozirgi kunda an'anaviy gilamchilik rivojiga «Usto» birlashmasi va «Hunarmand» assotsiatsiyasi munosib hissa qo'shmoqda.

Bu borada davlat va nodavlat tashkilotlari tomonidan tizimli choralar ko'rib, muayyan tadbirlar amalga oshirilib, jumladan, O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi tomonidan ham ushbu masalada tegishli davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda bir qator ishlar bajarildi.

2000 yildan boshlab kichik biznes va tadbirkorlik sub'ektlariga mikro kredit berish tizimining yo'lga qo'yilishi, 2006 yilda mamlakatda Mikro kredit bank tashkil etilishi soha rivojida muhim rol o'ynadi. 2003 yilda esa Tadbirkorlar va ishbiarmonlar harakati O'zLiDeP faoliyat boshladi va partiyaning "Ayollar qanoti" O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi, "Tadbirkor ayol" O'zbekiston ishbiarmon ayollar assotsiatsiyasi kabi bir qator ayollar manfaatlarini himoya qiluvchi nodavlat tashkilotlari qatorida xotin-qizlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshira boshladi. Fermerlik va tadbirkorlikka ko'maklashish maqsadida, 2004 yilda tashkil etilgan "Mehr nuri" jamg'armasining 2004-2008 yillardagi fermerlik va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash Dasturiga asosan kichik korxonalar, tadbirkorlik sub'ektlari va fermerlar uchun 365 mln. foizsiz kreditlar va grantlar ajratilib, undan 33 mln. so'mi kam ta'minlangan va ko'p bolali ayollarga berildi.

2004 yilda O'zbekiston Savdo sanoat palatasi ham tashkil etildi, tadbirkorlik va biznesni rivojlantirish, tadbirkorlarning chet ellik hamkorlar bilan aloqalarini yo'lga qo'yish va tashqi bozorga chiqish, yangi ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etishga chet el investitsiyalarini jalb etish bo'yicha faoliyat boshladi. Har yili tadbirkorlar, fermerlar va hunarmandlarning ko'rik-tanovi "Tashabbus"ning o'tkazilishini ta'minlab, 2008 yilda ko'rik-tanlovda 7000 dan ortiq tadbirkorlar qatnashdi

O'zbekiston xotin-qizlarining chevarchilik, kashtachilik, gilamdo'zlik, zardo'zlik kabi kasanachilik mehnat shakli asosida bozor iqtisodiyoti talablariga mos zamonaviy tadbirkorlik va erkin raqobat muhitiga transformatsiyalashuv jarayonlari, chekka hududlarda sanoatni rivojlantirish, tadbirkor, fermer xotin-qizlar ilg'or tajribalarini ommalashtirishga qaratilgan keng qamrovli faoliyati, o'sish sur'atlari va amaliy natijalari dalillangan;

Aholi ijtimoiy faol qismi tarkibida izlanuvchan va tashabbuskor tadbirkor xotin-qizlar salmog'ining oshib borishi, davlat va nodavlat tashkilotlar, xalqaro jamg'arma va grant loyihalari ko'magida tadbirkor ayollar huquqlarini himoya qilish tizimining takomillashishi, maqsadli moliyaviy resurslar ajratish orqali mehnat bozorida qulay sharoitlar yaratish borasidagi ijtimoiy-huquqiy omillar ochib berilgan;

O'zbek ayoli tabiatidagi tadbirkorlik xislatlarining shakllanishi uzoq tariximizga borib taqaladi. Tadbirkorlikning milliy asosda namoyon bo'lishi va rivojlanishida hunarmandchilik muhim rol o'ynaydi. Bolalikdan hunar o'rganish, yaratgan mahsuloti va mehnati bilan odamlarga naf keltirish xalqimizning milliy qadriyatiga aylangan.

Hunarmandchilikda ustoz-shogird an'analari mavjud bo'lib, avlodan-avlodga o'tib keluvchi o'ziga xos tartib-qoida va me'yorlar, axloqiy mezonlarga amal qilingan. Shogird o'z ustozidan fotiha olgandan keyingina o'zi mustaqil faoliyat olib borgan[2]. Bugungi kunda ham bu an'analarga amal qilib

kelinadi. Hunar turlari asrlar davomida kengayib, yangi yo'nalishlar va maktablar bilan boyib borgan. Ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda respublikada hunarmandchilikning 34 turi mavjud bo'lib[3], shaharlarda kasb-koriga qarab hunarmandlarning mahallalari shakllangan. Mustaqillik yillarida ayol avvalo, inson sifatida ijtimoiy-siyosiy, huquq va erkinliklarga ega ekanligi e'tirof etilib, erkaklar bilan huquqiy mavqei va jamiyatda tutgan o'zni qonun doirasida o'zaro tenglashtirildi. Bunga eng muhim asos – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bo'lib, uning 46-moddasida "Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar"[4], deb belgilab qo'yildi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida sovetlar davridan meros qolgan ayollar masalasidagi mavjud muammolarni bartaraf etish va yangi sharoitda ularning ijobiy hal etilishini ta'minlashga e'tibor kuchaytirildi. Barqaror rivojlanib borayotgan iqtisodiyotga asoslangan, ochiq huquqiy-demokratik davlat qurish, inson, uning manfaatlarini, huquq va erkinliklari so'zda emas, amalda oliy qadriyat darajasiga ko'tarildi. 1992 yili O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan Vazirlar Mahkamasi oldiga xotin-qizlar ahvolini yaxshilash bo'yicha Davlat dasturini ishlab chiqish vazifasi qo'yildi[5]. Umuman olganda, respublikadagi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarning o'zgarishi xotin-qizlarning turli yo'nalishlarda erkin faoliyat yuritishi, ular manfaatlarini himoya qilishda tub o'zgarish yasash zarurligini ko'rsatdi.

Shuning uchun, O'zbekistonda xotin-qizlar asosan, malakasiz qo'l mehnati ulushi katta bo'lgan tarmoqlarda band

bo'lib qoldi. Bir so'z bilan aytganda, bugungi kunda yurtimizda ipak va jundan qo'lda gilam to'qish sohasini rivojlantirish va ushbu gilamlarning sifatini yanada yaxshilashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Davlatimiz rahbarining 2020 yil 26 iyundagi "Respublikada qo'lda to'qilgan gilamchilik sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan bugungi kunda "O'zbekipaksanoat" uyushmasi tarkibidagi korxonalarining barchasida qo'lda gilam to'qish dastgohlari o'rnatilib ishga tushirildi. Jumladan, uyushma tarkibidagi korxonalar tomonidan 1 ming 200 dan ortiq gilam to'qish dastgohlari o'rnatilib, ushbu dastgohlarning har birida chevar xotin-qizlarning bandligi ta'minlangan.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, bugungi kunda «Gilamchilik turizmi» ko'plab sayyohlarni o'ziga jalb etgan sohadir. Tadqiqotchilar va mutaxassislar gilamchilikni qadimiy tariximizni so'zlaydigan xazina sifatida qarashadi.

Darhaqiqat, bu xazinalar turlicha va o'ziga xos bo'lib, milliy madaniyatning qadriyatlar tizimiga katta hissa qo'shadi. Shu o'rinda, "Hunarmand qishloqlari turizmi", "Hunarmand mahallalar turizmi" nafaqat noyob va murakkab hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqaradigan joy, balki har bir mintaqa jamoatchiligining san'ati va urf-odatlarini saqlaydigan, sayyohlarga bevosita namoyish etadigan madaniy muhitdir.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. Toshkent: O'zbekiston, 2017. -B.347.
2. Davlatova S. O'zbek an'anaviy hunarmandchiligi tarixiy jarayonlar kontekstida. (O'zbekiston janubiy hududlari misolida). -T.: Yangi nashr, 2018. -B 368.
3. O'zMA, M-67-jamg'arma, 1-ro'yxat, 41- yig'ma jild, 96 -vara.
4. O'zMA, M-67-jamg'arma, 1-ro'yxat, 41- yig'ma jild, 98 -vara.
5. O'zMA, M-67-jamg'arma. 1-ro'yxat, 118-yig'ma jild.
6. O'zbekiston Respublikasining 2012 yil 16 martdagi "Oilaviy tadbirkorlik" haqidagi qonuni//Xalq so'zi, 2012 yil 17 mart.
7. Rtveladze E. "Velikiy Shelkovyy put", Tashkent. Gosudarstvennoe nauchnoe izdatelstvo "Uzbekiston milliy ensiklopediyasi", 1999. - 280 s
8. Xaydarov N. Turizmni rivojlantirishda xorijiy davlatlar tajribasi. Ochiq iqtisodiyot: sog'lom raqobat, biznes muhiti investitsion muhit jozibadorligi / Xalqaro amaliy anjuman / TDIU.



Sharifjon MIRZOYEV,
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti
Gmail: sharifmirzoyev1998@gmail.com

T.f.d O.Rashidov taqrizi asosida

1950-1955 ACTIVITIES OF THE WATER MANAGEMENT BODIES OF UZBEKISTAN (ON THE EXAMPLE OF THE BUKHARA REGION)

Annotation

The changes made in the structure of the Soviet government of the 50s of the 20th century, as well as the unrest in the management of Water Resources in the opposite effect of Directive plans on the socio-economic development of the country, are studied on the example of the Bukhara region.

Keywords: resolution, water power, ministry, obcomparty, obliyrocom, organ, oblast, rayon.

1950-1955 ДЯТЕЛЬНОСТЬ ВОДОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ОРГАНОВ УЗБЕКИСТАНА (НА ПРИМЕРЕ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ)

Аннотация

На примере Бухарской области изучены изменения в структуре советской власти в 1950-е годы и противоречивые последствия директивных планов социально-экономического развития страны.

Ключевые слова: решение, водное хозяйство, министерство, подотдел, оюилрайк, орган, область, район.

1950-1955 YILLAR O'ZBEKISTON SUV XO'JALIGI ORGANLARI FAOLIYATI (BUXORO OBLASTI MISOLIDA)

Annotatsiya

XX asrning 50-yillari sovet hukumati tuzilmasida amalga oshirilgan o'zgarishlar hamda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish direktiv palanlarining o'zaro qarama-qarshi ta'sirida suv xo'jaligi boshqaruvda vujudga kelgan tartibsizliklar Buxoro oblasti misolida o'rganilgan.

Kalit so'zlar: qaror, suvxo'jaligi, ministlik, obkompartiya, obliyroqo'm, organ, oblast, rayon.

Kirish. Urush yakunlanishi bilan sovet ittifoqi boshqaruv apparatida o'ziga xos o'zgarishlar amalga oshirildi. Bunga sabab sovet boshqaruv modeli 1920-1930 yillardagi fovqulodda holatda shakillangan bo'lib [1], urush sharoitida ishlashga yo'naltirilgan edi. Mavjud vaziyatni o'nglashga qaratilgan chora-tadbirlar "Sovuq urush" shoritiga mos tushmadi. 1946 yilda ma'muriy-buyruqbozlik tizimini kuchaytirish hisobiga og'ir sanoatni jadallashtirishga kirishildi. Biroq, tovar ishlab chiqarishi, qishloq xo'jaligi tarmoqlari rivojlanish darajasi pastligicha qolmoqda edi.

-Tadqiqot metodologiyasi. Maqola umuman qabul qilingan tarixiy metodlar tarixiylik, siyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan bo'lib unda XX asrning 50-70-yillarida O'zSSR (Buxoro oblasti misolida)da olib borilgan irrigatsiya inshootlari qurilishi tarxi yoritilgan.

-Tahlil va natijalar. Fashistlar ustidan qozonilgan g'alaba sovet hukumatiga qimmatga tushgandi. Mamlakatda ocharchik, turli mintaqalarida amladagi hukumatdan ochiqdan-ochiq noroziliklar avj ola boshladi. Boz ustiga aholi istemoli mollarni savdo peshtaxtalardan topish nihoyatda qiyinlashdi. Istemol uchun zarur tovarlar taqschilligiga bir qator sabablarni ko'rsatish mumkin:

- aholi ehtiyoji uchun zarur bo'lgan tovarlarni ishlab chiqarish etarli bo'lmadi;
- chetdan import qilinadiga tovarlar hajmi juda kamligi;
- istemol mahsulotlari hududlar orasida teng taqsimlanmagan;
- tovar-pul munosabatlari to'g'ri yo'lga qo'yilmagani;
- milliy mahsulotlar sifat darajasini past bo'lishi;
- qonunchilikda sovdoga ruxsat etilmagani [2] va x.k.

Yuqoridagi omillar ta'sirida sovet hukumati yuqori boshqaruv organlarini qayta ixtisoslashtirishga qaror qilindi. Xususan, 1946-1950 yillarda SSSR davlat boshqaruv shakli direktiv tizimdan ijro tizimiga o'tkaziladi. Endilikda hukumat boshqaruvi ministrlar tizimida qayta tuziladigan bo'ldi. SSSR Oliy Sovetini 1946 yil 19 martida qabul qilgan "SSSR hukumatini tuzush-SSSR Ministrlar Soveti" qarorida SSSR Ministrlar Soveti tashkil etilib, tarkibi tasdiqlandi. Tarkibga Ministrlar soveti raisi, 8 ta o'rinbosar, Ministrlar soveti raislari (ittifoqdosh respublikalarda), 44 ittifoq ministri, 4 ta vakil ministrlar soveti komiteti kirdi. Jami: - 57 nafar yuqori mansab lavozim joriy etildi [3]. Sovet hukumati uchun mamlakatdagi davlat boshqaruvi tizimini tinch sharoitga moslashtirish oson bo'lmadi. Sababi yangi tizimi xalq xo'jaligi barcha soha va tarmoqlarni to'la qamrab olishi hamda markazlashtirish, ma'uriy buyruqbozlik prinsplarini saqlab qolingan holda tashkil etilishi lozim edi.

1947 yilda SSSR Ministrlar Soveti tizimida bevosita rais o'rinbosar sifatida 8 ta tarmoq byurolari tashkil topdi. Jumladan, qishloq xo'jaligi byurosiga G.Malenkov tayinlanib, byuro 6 ministrlar va tashkilotni nazorat qilgan [4]. Boshqaruvdagi mazkur tuzulmalar (Byurolar) barcha tarmoq va sohalarda operativ boshqaruvni amaga oshirishi, oldindan belgilangan reja asosida faoliyat yuritishi belgilandi.

1946-1950-yillarga erishilgan yutuqlar, ma'muriy buyruqbozlikni yanada kuchaytirish, aholini ommaviy safarbar etish imkonini berdi. Ulkan rejalarni amalga oshirishda, partiya ta'sirini kuchaytirish maqsadida 1952 yil 5 oktyabrda KPSS ning XIX s'ezdida VKP (b) faoliyati tugatilib, o'mida KPSS (Kommunisticheskuyu partiyu Sovetskogo Soyuzu) tashkil etildi. Ushbu tuzilma tashkil topishi jamiyatda partiya etakchiligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilganidan darak

beradi. Ayniqsa, SK komissiyasi (tarkibi 7 nafardan iborat) barcha jabhada nazoratni qo'lga olishga intila boshladi. Qolaversa, XIX s'ezdda Politbyuro negizida SK Prezidumi tashkil etildi (a'zolari soni politbyurodan bir necha bor ko'p bo'lgan).

Sovet hukumati tizimidagi qo'sh hokimiyatchilik saqlab qolinganda, boshqaruv tizimi shaklan o'zgaragan bo'lsada, ammo mazmunan Satalin rejimi davom etardi. YA'niy partiya va ijroiya hokimiyat hamkorligidagi boshqaruv asosiga qurildi. Bir so'z bilan aytganda, tinch hayot tarziga o'tayotgan sovet ittifoqi urush talofatlari bartaraf etish va aholi ehtiyojlarini qondirish kabi muhim hayotiy masalalarini hal etishga majbur bo'ldi. Ayniqsa, aholi istemol tavarlari ishlab chiqarish, engil sanoatni rivojlantirish direktiv plani O'zbekiston SSR qishloq xo'jaligi rivojiga turki berdi.

1950 yilni 11 yanvar sanasida O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti va SK KP(b) "O'zbekiston SSRda paxtachilikni yanada rivojlantirish to'g'risida" gi №96 sonli qarori qabul qilindi. Qarorda 1949 yil Respublika davlatga paxta tayyorlar rejasini bajarilay qolgani sabablari ko'rsatiladi. Jumladan, respublika kolxoz va sovxozlari davlatga paxta sotish rejasini 89,6 foizga bajargan, 200 ming tonna paxta topshirish rejasini amalda bajarilmadi [5]. Davlatga paxta topshirish rejasini bajarilish holati asosan Buxoro va Namangan oblastlarida murakkab bo'lgan. Buxoro oblastda partiya, sovet va qishloq xo'jaligi organlari- kolxoz, MTS va sovxozlar hamkorligini ta'minlanmadi. Oblastda paxtachilikni rivojlantirish ishlariga etarli tibor qaratilgan va boshqa qator kamchiliklarga yo'l qo'yilgandi.

1950 yil 23 fevral sanasida O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti va O'zbekiston VKP(b) Markaziy Komiteti "Bahorigi ekin mavsumiga tayyorganlik to'g'risida" gi №286-sonli qaror qabul qildi. Qaror mazmuni to'liq direktiv xususiyatga ega bo'lib, quyi bo'g'inda faoliyat yuritgan boshqaruv va ijro organlari ish tartibi yuqoridan belgilab berildi. Xususan, O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti va SK KP (b) Respublikada bahorgi ekish mavsumiga tayyorganlik ishlari mutloq qoniqarsiz deb topdi. O'zSSR Qishloq xo'jaligi Ministrligi, O'zSSR Suv xo'jaligi Ministrligi, bir qator oblast va rayon partiya hamda sovet tashkilotlari tomonidan bahorgi ekish mavsumiga tayyorganlik jarayonida ma'suliyatsizlik va qo'pol xatolarga yo'l qo'ygani ta'kidlanadi. Buning ta'sirida birinchi navbatda irrigatsiya-meliyotsiya va qishloq xo'jaligida belgilangan vazifalar amalga oshmasdan qolgan [6]. Qarorda har bir oblast, rayon va hatto ba'zi sovxoz, kolxozlar kesimda tayyorganlik darajasi tahlil etiladi. CHunonchi, Buxoro oblastidagi mavjud vaziyat o'ta achinarli ekani alohida qayd etilib, obkom partiya birinchi sekretari o'rtoq Mangutov qattiq ogohlantirildi. Oblastda holatni keskin ko'rinish kasb etish sababi irrigatsiya-meliyotsiya masalalari ko'ndalan turganida edi. Biroq, oblast ma'murlari mavjud vaziyatni o'nglash imkoniyatiga ega emasdilar. SHunga qaramasdan, yuqoridan belgilangan rejalarni bajarish mahalliy hukumat organlari uchun majburiy xarakter ega bo'lgani bois rad etish imkoni bo'lmadi. Oxir oqibatda, belgilangan rejalarni barbod bo'ladi.

1949 yilda SK KP(b) O'zbekiston IV Plenumi partiya rahbarlari, sovet, qishloq va suv xo'jaligi organlari ogohlantirilishiga qaramasdan, o'tgan yil yo'l qo'yilgan xatolar yangi yilda yana takrorlandi. Oblast mahalliy ijro organlari mutasaddi rahbarlari holatni ob-havoni noqulay kelgani bilan izohlashga urinishadilar [7]. Bahorgi ekish masumiga tayyorganlik muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilishda qishloq va suv xo'jaligida mavjud muammolar buyruqbozlik tizimida hal etishga qartilgani ko'rsatadi.

Chunki, sovet hukumati tizimi partiya nazoratidagi vertikal boshqaruv asosiga qurilgan bo'lib, qilinishi lozim bo'lgan ishlar yuqoridan belgilanib, targ'ibot-tashviqot tadbirlari ta'sirida ishchi kuchi motivatsiyasi shakllantirildi.

Begilangan vazifalar ilmiy asoslarga ega bo'lmasdan, amaliyotga tatbiq etildi. 1951 yil 31 yanvar Buxoro oblast ijroiya qo'mitasini Mehnatkashlar Xalq Deputatlar Kengashi navbatdagi yilishi o'z ishini boshladi. Yig'ilish kun tartibida oblast 1950-1951 yillarda yangi sug'orish tizimiga o'tish ahvoli masalasi bo'ldi. Muhokamada markaziy ijro organi obliyroqo'm O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti tomonidan qabul qilingan (1950 yil 7 oktyabrda №1816) [8] qaror ijrosi ta'minlanmagani uchun qattiq tanqid qildi. YAngi sug'orish tizimiga o'tish jarayonidagi oqsash uchun obliyroqo'm, oblast paxtachilik boshqarmasi, suv xo'jaligi va uning joylardagi organlarini ayiblagi [9].

Ammo, Buxoro oblasti yangi sug'orish tizimiga o'tish maqsadida belgilangan vazifalarni o'z muddatida bajarish imkoniyatiga ega emasdi. Irrigatsiya-meliyotsiya borasidagi ishlarni samarali tashkil etish uchun bir qator davlat tashkilot hamda muassalari faoliyatini muvofiqqlashtirish talab etilgan. Zero, suv muammosini ijobiy hal etishga mo'ljallangan tadbirlarni amalga oshirish Buxoro sharoitida o'ta murakkab jarayon hisoblanadi.

Ma'muriy buyruqbozlik boshqaruvga asoslangan tizimda quyi bo'g'indagi ijro organlari ish tartibi yuqori uchun hisobot berish bilan xarakterlangan. Real vaziyatni hisobga olish, ichki imkoniyatdan kelib chiqish, mahalliy mutaxassislar tajribasiga tayanish hamda ilmiy yondoshuv kabi o'ta muhim ahamiyatga ega bo'lgan jihatlar nazardan chetda qoldi. SHunga qaramasdan, vazifalar ijrosi qattiq nazoratga olinib, har bir muassasa va tashkilot rahbarlariga qat'iy ko'rsatmalar beriladi. Xususan, rayijroqo'mlarga:

a) Joylarda kolxozchilarni sug'orish tizimlarini qayta qurish, sug'oriladigan er uchastkalarini mustahkamlash ishlariga ommaviy jalb etish;

b) MTS va mashina-eskavator parki texnikalari uchun sug'orish uchastkalarini mustahkamlash ishlaridagi maksimal yuklamasini aniqlash;

v) Bajarilishi lozim bo'lgan ishlar yuzasidan doimiy va qat'iy nazorat o'rnatish;

g) Rayijroqo'mlar har bir yig'iishida rayon suv xo'jaligi rahbari, paxtachilik, qishloq xo'jaligi va qishloq soveti hamda yangi sug'orish tiziga o'tishda ortda qolayot kolxoz raislari hisobotlarini tinglash [10];

Oblast partiya, sovet va suv xo'jalik organlari o'z navbatida o'zlariga bo'yusunuvchi boshqa ijrochilarga topshiriqlari buyruqbozlik tizimida o'tkazadi. YUqoridan, berilgan qarorlar oblast ijroiya qo'mitasi tomonidan hech qanday o'zgarishlarsiz ijro uchun qabul qilingandi. Masalan, 1950 yilda Vobkent rayonida 3-MTS tashkil etilib, tashkilot uchun zarur er uchastkasi, alohida bino ajratilib, direktor qarorda belgilangan muddatda tayinlandi [11]. Biroq, markaziy organlar tomonidan bajarilishi kerak bo'lgan vazifalar - yangi texnikalar keltirilishi, ehtiyot qismlar, zarur kadrlar va x.k. ishlar 3-4 yillar davomida bajarilmasdan keldi. Ushbu holatdan shunday xulosa qilish mumkin-ki, oblast partiya va ijro organlari ichki imkoniyatlardan unumli foydalanishga uringan. Lekin, markaziy organlar, tashkilot va muassasalar (SSSR va respublika ahamiyatiga ega bo'lgan) bu borada sustkashlikka yo'l qo'yib keladi. Natijada reja qisman yoxud butunlay barbod bo'ladi.

Oblast qishloq va suv xo'jaligi boshqaruvida ham bevosita qo'sh hokimiyatchilik ko'zga tashlanadi. Jumladan, 50-yillarda oblast qishloq xo'jaligi boshqarmasi boshlig'i lavozimida T.Nosirov zarur mutaxassislikka ega va mahalliy millat vakili sifatida faoliyat yuritgan bo'lsa, obkom partiyani qishloq xo'jaligi bo'yicha bo'limi mudiri ma'sul lavozimida A.Federenko rus millatiga mansub diplomu bo'yicha mutaxassisligi iqtisodchi bo'lgan shaxs ishlangan. Muammo shundaki, hal qiluvchi qarorni boshqarma boshlig'i emas balki, partiya vakili, bo'lim mudiri qabul qilgan. Demak, sohada mavjud muammolarni yaxshi bilgan hamda tushunish

salohiyatiga ega bo'lgan mutaxassislariga bu borada o'z fikirlarini erkin bildirishga imkon berilmagan.

Suv xo'jaligidagi muammoli holat manfaatdor va aloqador tashkilotlarni har birida, shuningdek, markaziy hamda mahalliy ijro organlari yig'inlarida alohida-alohida, shuningdek, mutazam mahokama qilib borildi. Yig'ilishlarda har bir tashkilot, muassasa tomonidan yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni e'tirof etgan holda, boshqa hamkor tashkilotlar o'zlariga yuklatilgan vazifani belilagan muddatda bajarmasligi natijasida kamchiliklarga yo'l qo'yilgani ro'kach qilindi. Ammo, na respublika markaziy organlari va na oblast mutasaddilari tomonidan boshqaruvni muvofiqlashtirishga masalasiga e'tibor qaratilmadi. Aksincha, respublika darajasida faoliyat olib borayotgan tashkilotlar aybi bilan yo'l qo'yilgan kamchiliklar uchun hukumat obkom partiya va obilijroqo'mlarni jazolashi odatiy holga aylanadi.

1952 yilni 17 may sanasida obilijroqo'mni "Oblast ichki suv resuslaridan foydalangan holda qurg'oqchilikka qarishi kurashish to'g'risi"dagi №11 p.5 qaror qabul qilindi [12]. Unda paxta hosili suvsizlikdan nobud bo'lishi xavfi yuqori ekani ma'lum qilindi.

Vaziyatni zudlik bilan o'nglash maqsadida suv xo'jaligi boshqarma boshlig'i /o'rtoq Volik/, oblast paxtachilik bosh boshqarmasi boshlig'i /o'rtoq YAshina/ va rayjrokomlar topshiriq berildi. Agar, paxta hosili nobud bo'lsa, mutasaddilar qat'iy jazolanishidan ogohlantirildi. Ushbu holatda, nafaqat obkom partiya balki, obilijroqo'm ham buyuruqbozlik usulidan foydalanayotgani ko'rinib turibdi.

Suv ta'minotini yaxshilash uchun SHimoliy va Janubiy kollektarlarga zudlik bilan nasoslar o'rnatib, ular yordamida ko'tarilgan suvlardan sug'orish maqsadida foydalanish kechiktirib bo'lmas vazifa qilib qo'yildi. E'tiborli jihati, suv nasoslari ittifoqni boshqa mintaqalaridan olib kelinishi lozim edi. SHu sababdan obilijroqo'm O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetidan:

a/Paxtachilik va Suv xo'jaligi Ministliklariga nasos o'rnatish uchun zarur bo'lgan materiallarni oblastga yuborish;

b/Paxtachilik Ministligiga Buxoro oblast boshqarmasi uchun qo'shimcha 15 ta nasos va mutaxassislar guruhini yuborish majuriyatini yuklashni so'raydi [13].

Paxtachilik Ministrligi o'z navbatida mavjud muammolar tufayli oblast tomonidan so'ralganlarni o'z vaqtida etkazib bera olmadi. Natijada rejalashtirilgan vazifalar borbod bo'ldi. YUklatilgan majburiyatlarni bajarish muddatiga rioya qilinmagani barcha aloqador (SHu jumladan markaziy xo'jalik organlari-Paxtachilik, Qishloq xo'jaligi, Suvxo'jaligi va h.k ministrlar) tashkilot rahbarlari uchun ma'lum bo'lsa-da sukut saqlab kelinadi.

Tashkilot, muassasa va xo'jalik organlari faoliyati sarhisob qilingan yil yaquni hisobotlarida esa muammolar yuzaga qalqib chiqdi. Har bir tashkilot faoliyati batavsil tahlil etilib, ma'sullardan izoh talab etiladi. O'z navbatida mutasaddi rahbarlar ishga aloqador boshqa tashkilotlar aybini ro'kach

qilib, o'zi rahbarlik qilayotgan tashkilotni oqlashga urinishadilar. Pirovardida asosiy muammo O'zbekiston KPSS va Ministrlar Sovetiga borib taqaladi va ba'zi ijrochilarga tegishli tartida jazo berish bilan yakun topadi.

1952 yilda O'zbekiston Ministrlar Soveti va SK KPSS Buxoro oblastida mavjud irrigatsiya-melioratsiya muammosiga alohida etibor qaratdi. Tegishli vazirliklar bilan hamkorlikda uzoq yilga mo'ljallangan istiqbolli reja ishlab chiqildi. Loyihada suv xo'jaligi va suv qurilishiga alohida urg'u beriladi. CHunonchi, oblast ekin maydonlari meliorativ holatini tubdan yaxshilash, sho'rlanish va botqoqqa aylanishni oldina olish, suvdan samarali foydalanish, muhofaza qilish, ishlab chiqarish tajribasi asosida 3 ta quduqsimon zaurlar chiqarish (1952 yil qazilishi reja qilingan nasoslar maxsus nasoslar bilan jihozlanib, ularni suvi foydalanishga yaroqli bo'lgan taqdirda qayta sug'orish uchun yo'naltiriladi), Taraboz suv uzeli qurulishi loyiha-semeta hujjatlarini 1953-1955 yillarda yakunlash kabi vazifalar kiritildi [14].

Oblast irrigatsiya sohasida amalga oshirilishi ko'zda tutigan tadbirlar turli manfaatdor vazirlik, tashkilot va muassasalar rejasida ham o'z aksini topadi. Jumladan, SSSR Paxtachilik Ministrligi 1952-1953 yillarga mo'ljallangan rejalarida Vobkent, Jo'yzar va Xayrabort qishloq soveti markazi hamda kanallar qurish, Buxoro oblast meliorativ tizimini rivojlantirish tadbirlarni kiritiladi [15].

Hayratlanarli jihati shundaki, Paxtachilik Ministrligi Buxoro oblasti suv xo'jaligi uchun 1951 yilda etkazib berishi kerak bo'lgan materiallar (uskuna, qurilmalar, nasoslar va x.k) 1952 yil rejasiga takror kiritigani o'tgan ikki yil mobaynida ministrlar tomonidan bu reja bajarilmaganligi anglatadi. Holbuki, 1952 yilda Buxoro oblastiga "Andijon" tipdagi divigatellar bilan 50 dona nasos berish reja qilingandi. Aslida bu nasoslar 1951 yilda oblast obkom partiya va ijroqo'mni qo'shma qarorida Ministrlardan so'ralgan edi. Afsus-ki, arxivlarda O'zbekiston SSR Paxtachilik Ministrligi tomonidan Buxoro oblasti suv xo'jaligi uchun maxsus nasoslar etkazib berilgani to'g'risidagi rasmiy hujjat uchratilmadi. Tabiiy-ki oblast ma'muriyati o'z vakolat doirasida mavjud ichki imkoniyatlarni safarbar etadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendation).

O'tgan yillardagi tajriba (Zarur uskuna va ehtiyot qismlar har bir ma'sul tashkilotlarning yillik rejasiga kiritildi)ga tayanib, 1953 yilda nasoslar bilan ta'minlash masalasiga yondoshuv o'zgardi. Ya'ni, obilijroqo'm har bir tashkilotdan bevosida zarur yordamni so'rash tartibi o'zini oqlamadi, endilikda oblast umumiy ehtiyotlar yuzasidan kelib chiqib O'zbekiston Ministrlar Sovetiga yillik xalq xo'jaligi reja ko'rinishida taqdim etadi. Ministrlar Soveti o'z navbatida Davlat reja qo'mitasi yordamida umumiy Respublika xalq xo'jaligini rivojlantirish rejasini tasdiqlaydi. YAngi tartib suvqurilishi tizimidagi tashkilotlarni qisman bo'lsada muvofiqlashtirishga xizmat qildi.

ADABIYOTLAR

1. Шухрат Эргашев. Эрк истар кўнгил. -Тошкент: Ўзбекистон, 2017. -Б. 51.
2. Сидоров В.В. Смирнов Г.Г. Товарный дефицит и его кримногенные последствия//Социологические исследования. – 1990. -№7. –С. 123-128
3. К.Г.Ильин. Реорганизация центральных органов исполнительной власти СССР в послевоенный период (1946-1950 гг) Авто..кан.ист.наук. –Москва – 2010. –С. 21
4. К.Г.Ильин. Роганизация центральных органов исполнительной власти СССР в послевоенный период (1946-1950 гг) Авто..кан.ист.наук. –Москва – 2010. –С. 22.
5. Buxoro viloyat davlat arxivi 1023-fond, 1-ro'yxat, 125-yig'ma jild, 32-varaq
6. Buxoro viloyat davlat arxivi 1023-fond, 1-ro'yxat, 136-yig'ma jild, 89-varaq
7. Buxoro viloyat davlat arxivi 1023-fond, 1-ro'yxat, 136-yig'ma jild, 90-varaq
8. Buxoro viloyat davlat arxivi 1023-fond, 1-ro'yxat, 149-yig'ma jild, 369-varaq
9. Buxoro viloyat davlat arxivi 1111-fond, 1-ro'yxat, 136-yig'ma jild, 31-varaq
10. Buxoro viloyat davlat arxivi 1023-fond, 1-ro'yxat, 571-yig'ma jild, 101-varaq
11. Buxoro viloyat davlat arxivi 1023-fond, 1-ro'yxat, 571-yig'ma jild, 103-varaq

12. Buxoro viloyat davlat arxivi 1111-fond, 1-ro'yxat, 136-yig'ma jild, 151-varaq
13. Buxoro viloyat davlat arxivi 1111-fond, 1-ro'yxat, 136-yig'ma jild, 152-varaq
14. Buxoro viloyat davlat arxivi 1023-fond, 1-ro'yxat, 804-yig'ma jild, 140-varaq
15. Buxoro viloyat davlat arxivi 1023-fond, 1-ro'yxat, 804-yig'ma jild, 146-varaq



UDK:930

Nozima NASRIDDINOVA,
Termiz davlat universiteti o‘qituvchisi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti professori, t.f.d. E.Qobulov taqrizi asosida

SURXON VOHASIDA BAXSHICHILIK SAN’ATINING SHAKLLANISHI VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Surxon vohasida baxshichilik san’atining shakllanishi bilan bog‘liq tarixiy jarayonlar hamda Sherobod dostonchilik maktabi, uning asoschilari, dostonlari repertuari, geografik areali, o‘ziga xos xususiyatlari haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: voha, baxshi, maktab, doston, musiqa, tadqiqot, ustoz-shogird, an’ana, repertuar, cholg‘u, terma.

СТАНОВЛЕНИЕ И ОТЛИЧИТЕЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ИСКУССТВА “БАХШИЧИЛИК” В СУРХАНСКОМ ОАЗИСЕ

Аннотация

В этой статье представлены исторические процессы, связанные с формированием искусства бахшизма в сурхандарьинском оазисе, а также сведения о шерabadской школе эпоса, ее основателях, репертуаре эпосов, географическом ареале, особенностях.

Ключевые слова: оазис, бахши, школа, эпос, музыка, исследования, учитель-ученик, традиция, репертуар, инструмент, терма.

FORMATION AND DISTINCTIVE FEATURES OF THE ART OF “BAKSHICHILIK” IN THE SURKHAN OASIS

Annotation

This article provides information about the historical processes related to the formation of the art of Bakhshi in the Surkhan oasis, as well as information about the Sherabad epic school, its founders, repertoire of epics, geographical area, and specific features.

Key words: oasis, gift, school, epic, music, research, teacher-student, tradition, repertoire, instrument, terma.

Kirish. Baxshichilik san’ati mustaqillik tufayli qaytadan tiklandi. Davlatimizning ma’naviyat va ma’rifat, qadriyatlarini tiklash borasida olib borayotgan siyosati sabab baxshichilik sohasi yangi bosqichga ko’tarildi, yoshlar orasida bu muhim qadriyatimiz davom etib kelmoqda. Otabobolarimizdan qolgan bu me’ros bugungi kunda ham o’z ahamiyatini yo’qotgan emas, aksincha yangidan sayqallanib kelmoqdaki bu shakllanib kelayotgan yosh avlod tarbiyasida muhim ahamiyatga egadir. Surxondaryo xalq og’zaki ijodi qadimiy tarixga ega bo’lib, uni o’rganish, to’plash, nashr etish, ilmiy tadqiq qilish sohasida o’ziga xos muvaffaqiyatlar yuzaga keldi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Surxon yurti baxshilari haqidagi dastlabki ma’lumotlar rus olimlarining kundaliklarida qayd etilgan bo’lib u XIX asr oxriga borib taqaladi. O’zbek folklorshunos olim X.Zarifov, A.Qahhorov va M.Afzalovlar bu borada taqiqotlar olib borgan. Vaha baxshilari orasida Omonnazar baxshi, Chori baxshi, Abdurahmon baxshi, Jabbor baxshi, Davrongeldi baxshi va boshqalar nomi keyingi yuz va ellik yillar ichida mashhur bo’lib kelgan [1].

Folklorshunosligimizning erishgan yutuqlari turli monografiyalar, darslik va qo’llanmalarda, ma’lum yuklashlar munosabati bilan e’lon qilingan umumlashma ilmiy maqolalarda yaxshi ifodasini topgan. Buni turli davrlarda izlanish olib borgan Hodi Zarif, M.Alaviya, T.Mirzayev, O.Sobirov, A.Qahhorov, M.Jo’rayev, A.Ergashev, H.Oqbo’tayev, K.Mamashukurov, T.Turdiyev, R.Mustafoqulov, B.Yoriyev va boshqa olimlarning ilmiy tadqiqotlarida ham ko’ramiz [2].

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada umum qabul qilingan metodlar -tarixiy tahlil, qiyosiy-mantiqiy tahlil, dala kuzatuv, xronologik ketma-ketlik tamoyillari asosida Surxon

vohasida baxshichilik san’atining shakllanishi bilan bog‘liq tarixiy jarayonlarini yoritishdan iboratdir.

Tahlil va natijalar. Surxon vohasi aholisi baxshichilikda asosan qo’biz, dap, puflama asbob hisoblangan sibizg’a, g’ajir nay, surnay, do’mbira, chanqavuz kabi qadimgi sozlar jo’rligida termalar ijro qilganlar. Vohada baxshichilikning o’ziga xos maktablari shakllangan. Masalan, shunday maktablardan biri Sherobod baxshichilik maktabi nafaqat vohamizda, balki umumo’zbek dostonchiligida muhim o’rin tutib kelgan. Bu maktab asoschisi Sherna baxshi hisoblanadi. Bu maktab an’analari Surxon vohasi bilan bir qatorda janubiy Tojikiston, janubiy sharqiy Turkmaniston va shimoliy Afg’oniston hududlarigacha yoyilgan. Bu maktab baxshilari asocan „Misqol pari“, „Yunus piri“, „Nurali“, „Alpomish“, „Hasanxon“, „Avaxxon“, „Nurali“, „Kuntug’mish“ dostonlarini kuylaganlar. Voha baxshilari musiqa asboblari va aytilish usullari ham bir biridan farqlangan. Masalan turkman baxshilari termalarini ijro usuli bilan farqlanishdan tashqari ular cholg‘u asboblari „dutor“ deb atashadi.

Surxon vohasining Sherobod dostonchilik maktabidan o’zbek dostonchiligining mashhur ijrochilari yetishib chiqqan, ayni shu maktab Nurota va Bulungur dostonchilik maktablariga ham ijobiy ta’sirini o’tkazib turgan. XVIII asrlarda bu maktabdan Bobo shoir, Qosim oqinlar, XIX asrlarda Olim baxshi, Xoler baxshi, Niyozali baxshi, Sherna baxshilar, XX asrlarda esa Shoto’ra baxshi, Mardonakul baxshi, Mamarayim baxshi, Bo’riboy baxshi Ahmedov, Yusuf O’tagan o’g’li, Chorsham baxshi Rahmatulla o’g’li, Toshmurod baxshi, Xushboq baxshi Mardonaqul o’g’li, Qora baxshi, Shoberdi baxshi Boltaev, Boboraxim bahshi Mamarayim o’g’li, Abdunazar baxshi, Shodmon baxshilar yetishib chiqqan. Sherobod dostonchilik maktabi xam o’nlab

baxshilarni birlashtirgan. Normurod baxshi, Ahmad baxshi, Nurali Boymat o'g'li, Qora baxshi, Mamarayim baxshi, Boymurod baxshi kabi dostonchilar ijod qilgan. "Oltin qovoq", "Malla savdogar", "Ollanazar Olchinbek", "Toshbosar", "Xurso'na" kabi dostonlar faqatgina Sherobod baxshilari tomonidan kuylangan [3]. Sherobod baxshichilik maktabi dostonlari o'zining soddaligi, madhining ixchamligi, matnning osonligi va ifodaning ravonligi bilan ajralib turadi. "Alpomish" dostoni qo'ng'iroq versiyasining takomillashishiga katta hissa qo'shgan Surxondaryo vohasi baxshichiligida uchta dostonchilik maktabi, ya'ni Sherobod, Beshqo'ton va Boysun baxshichilik markazlari mavjud [4].

Sherobod dostonchilik maktabining iste'dodli vakillari «Alpomish» va «Go'ro'g'li» turkumidagi dostonlarni mukammal biladigan Bobo shoir, Sherna baxshi, Mardonaqul Avliyoqul o'g'li va Chorsham baxshilardir [5]. Masalan A.Qahhorov Sherobod baxshichilik maktabi haqida to'xtalar ekan Sherobod baxshichilik maktabi vakillaridan anchagina dostonlari va ularning variantlari yozib olinganligini e'tirof etadi. O'zbekistonning janubida yashovchi ko'pgina baxshilar Sherobod dostonchilik maktabi bilan bog'liq ekanligiga e'tiborni qaratadi. "XX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida yashagan bu maktabning mashhur vakili Shernazar Beknazar o'g'li bir qancha shogirdlar yetishtirgan. Mardonaqul Avliyoqul o'g'li, Umir Safar o'g'li, Normurod baxshi, Ahmad baxshi, Nurali Boymat o'g'li, Mamatrayim baxshi, Bo'ribov Ahmad o'g'li, Yusuf O'tagan o'g'li kabi o'nlab dostonchilar shu maktabga birlashdi va ulardan bir qancha dostonlar yozib olingan" [6].

Taniqli folklorshunos T.Mirzayev aytganidek, "Sherobod tumani qishloqlari doston sevar xalqimizga ellikka yaqin baxshi-shoirlar yetkazib berdi" [7]. Haqiqatdan ham Ozon, Qishloq bozor, Beshqo'ton, Kattatut, Kallamozor, Gegerdak, Oyinni, Takiya, G'ambur, Istara, Qayran qishloqlari qadimdan ham baxshilar yurti bo'lib kelgan. Bu yurtda Bobo shoir, Po'lat baxshi, Nazar baxshi, Yusuf O'tagan o'g'li, Alim baxshi, Sherna baxshi, Eshmurod baxshi, Toshmurod baxshi, Alisaid baxshi, Avaz baxshi, Jo'ra baxshi, Normurod baxshi, Boyqul baxshi, uning o'g'li Shoto'ra yuzboshi, Umir baxshi, Mardonaqul baxshi, Qiyom baxshi, Allamurod baxshilar elu xalq ko'nglini xushlab o'tishgan. Ularning sulola tizimida Dono baxshi, G'ani baxshi, Davron baxshi, Amir baxshi, Tog'ay baxshi, Elman baxshi, Do'rman baxshi, Chorsha baxshilarni ko'ramiz [8].

Sherobod baxshichilik maktabi vakillari katta mahorat egasi bo'lganlar. Ularning doston va termalarida radif, vazn, qofiya, ritmlar o'rinli qo'llanilgan. Ularning o'ziga xos poetikasini o'rganish esa o'z tadqiqotchilarni kutib turibdi. Sherobod baxshichilik maktabi hududiy jihatdan kengdir. "Surxondaryo, Qashqadaryo, ba'zan Janubiy Tojikiston baxshilari o'zaro doimiy aloqada bo'lgan va ularning ko'pchilligi Sherobod bilan bog'liqdir" [9]. Ana shu nuqtai nazardan olib qaraganda, A.Qahhorovning "Yangi dostonlar" kitobi ushbu maktabda shakllangan ayrim an'analarni yoritishda muhim ahamiyat kasb etgan. Unda, jumladan, quyidagilar qayd etiladi. "Sherobod dostonchilik maktabi xususida fikr yuritganda, shuni alohida ta'kidlash kerakki, bu maktab ustoz-shogirdlik an'anasi, shogirdlarning tarqalishi jihatidan alohida xususiyatga ega. Ya'ni ularning shu kundagi geografik o'rni juda katta territoriyani yegallaydi. Jumladan,

Qashqadaryoning janubida G'uzor, Dehqonobod, Ko'kabuloq (xozir bir qismi Qamashi tumaniga o'tib ketgan) rayonlari, Qamashi tumanining Qamay qishloq soveti, Surxondaryo vohasi, hatto Tojikiston va Turkmanistonning janubida yashovchi o'zbek qavmlari joylashgan chegarani ichiga oladi" Ushbu asarda Mardonaqul Avliyoqul o'g'li Sherna maktabining iqtidorli vakili sifatida qaralgan va uning ijodi yuzasidan muhim tahliliy mulohazalar keltirilgan [10].

Sherobod dostonchilik maktabi vakillaridan XX asrning 40-yillarida yozib olingan dostonlarda dostonchilikning nisbatan quyi bosqich unsurlari, badiiy tafakkurning uncha rivojlanmagan shakllari uchraydi. 1960-yillaridan boshlab esa an'analarning muayyanlasha borishi, ma'lum ma'noda kitobiylikka intilish kuchayadi [11]. Bunda iste'dodli xalq baxshisi Qodir Rahim o'g'lining (1936–1985) xizmatlari katta bo'ldi. Sherobod dostonchilik maktabidan Qosimko'r baxshi, Sherna Beknazar o'g'li, Mardonaqul Avliyoqul o'g'li, Umir Safar o'g'li, Normurod baxshi, Ahmad baxshi, Nurali Boymat o'g'li, Mamatrayim baxshi, Yusuf O'tagan o'g'li, Eshqobil baxshi, Bo'ribov Ahmedov, Qodir Rahim o'g'li kabi o'nlab dostonchilar yetishib chiqdi [12].

Bu maktab vakillaridan yozib olingan "Oltin qovoq", "Malla savdogar", "Zayidqul", "Ollanazar Olchinbek", "Oychinor", "Sherali", "Kelinoy" kabi qator dostonlar O'zbekistonning boshqa joylarida yashab o'tgan baxshilar repertuarida uchramaydi [13].

1921-yilda Xolyor baxshi "Amir qochdi" dostonini yozdi [14]. 1929-yilda atqli folklorshunos Hodi Zarif Boysunga kelib Xoliyor baxshidan "Amir qochdi" dostoni yozib oladi. 1937-yilda esa Xoliyor baxshini Afg'oniston bilan aloqasi bor degan gumon bilan qamoqqa oladi. Xoliyor baxshi Abdunazarkarim o'g'li O'zbekiston SSR ichki ishlar xalq komissarligi qoshidagi «uchlik»ning 1938-yil 4-fevraldagi qaroriga binoan otib o'ldirishga hukm qilinadi [15].

Umir baxshi Safar o'g'li ham Sherobod dostonchilik maktabida kamol topgan baxshi shoir sanalib, shoirning repertuarida 20 dan ortiq doston va bir necha yuz termalar joy olgan. Baxshi 45 yil ijodi davrida "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Zandigar", "Balxon", "Oypracha", "Nurali va Semurg", "Jahongir", "Mozandara", "Malla savdogar", "Kuntug'mish", "Shakar va Shirin" kabi 40 dan ortiq dostonlarni mahorat bilan kuyladilar. Qora baxshi esa "Alpomish" dostonini 25 ming misranni ko'ylagan [16].

Sherobod baxshichilik maktabining yana bir o'ziga xos xususiyati shundaki, ushbu maktabda «Go'ro'g'li» turkumiga kirgan 32 ta dostondan tashqari yana aynan Chambil va Go'ro'g'li sulton bilan bog'liq doston ham kuylangan. Xususan, Sherobod baxshichilik maktabida «Alpomish» dostonining qirqa yaqin varianti ijro etilgan [17].

Xulosa. Umuman olganda, «Alpomish» turkumidagi dostonlarning kattagina qismi ana shu zaminda yuzaga kelgan. Bundan tashqari, ushbu maktab vakillari sanalgan baxshi-shoirlar mustaqil tarzda ham turli mavzularda dostonlar yaratib turishgan. Chunonchi, «Ollanazar-Olchinbek», «Oychinor», «Bika Barchin», «Kelinoy», «Qoraqum», «Amir qochdi», «Ernazar» va «Ulug'oy» kabi dostonlar shular jumlasidandir. Xullas, Sherobod baxshichilik maktabining repertuari nihoyatda boy va rang-barang sanaladi.

ADABIYOTLAR

1. Tursunov S, Pardayev T, Tursunova N, Murtazayev B. O'zbekistonda baxshichilik san'atning shakllanishi va taraqqiyoti tarixi. – T., "Tafakkur", 2015. - B 32.
2. Mustafaqulov R.B, Shoymardonov I.A. Sherobod baxshilik maktabi: kecha va bugun. –T.; "Tafakkur", 2011. - B.32.
3. Tursunov S., Pardaev T., Mahmadiyeva N. Surxondaryo – etnografik makon. –T.: Akademnashr, 2012. –B. 232.
4. Tursunov S., Qobilov E., Pardayev T., Murtazoyev B. Surxondaryo tarix ko'zgisida. –T.: Sharq, 2001. – B. 325.
5. Dala yozuvlari. Qumqo'rg'on tumani Baxshiqul Tog'ayevdan yozib olingan. 2020-yil 29-oktabr.
6. Qahhorov A. Yangi dostonlar. - T.: "Fan" 1998. 29-30 betlar.

7. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. - T.: "O'qituvchi", 1990. 238 b.
8. Surxondaryo viloyat davlat arxivi. 361-jamg'arma, 1-ro'yxat, 2998-ish. 115 varaq.
9. Qahhorov A. Yangi dostonlarlar. - T.: "Fan" 1998. 13-23 betlar.
10. Qahhorov A. Yangi dostonlarlar. - T.: "Fan" 1998. 22-23-betlar.
11. Qahhorov A. Yangi dostonlar. – T., 1988.
12. Tursunov S., Rashidov Q. Boysun. – T.: Akademyashr, 2011. –B. 521.
13. Murodov M. Alpomishnoma. 1-2-kitoblar, - T., 1999, 2000.
14. Eshboyev T. Surxondaryoda bir zo'r baxshi bor edi... // Surxon tongi. 1998-yil 3-mart. №-31. B3.
15. Dala yozuvlari. Sho'rchi tumani, 2020-yil 15-aprel.
16. Safar Omon. Qora baxshining boyligi // Surxon tongi. 1998-yil 5-may. № 66.
17. Караматов Ф.М. Узбекская домбровая музыка. - Т., 1962 г.



UDK:392:94(584)

Bobir ODILOV,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti dotsenti v.b., PhD
Elektron manzil: odilov1984@bk.ru

O'zMU dotsenti A.Xoliqulov taqrizi asosida

STUDY OF UZBEK NATION'S TRADITIONAL AGRICULTURE AND ISSUES OF NATIONAL ECONOMY AT THE END OF XIX AND AT THE BEGINNING OF THE XX CENTURE

Annotation

In this article it is analyzed materials belonging to history of agricultural economy of the Uzbek people authors of which the scientist of an era of the Russian Empire is and also it is compared newspaper articles from the historiographical point of view.

Key words: Economy, traditional economy, agriculture, agricultural implement, irrigation system, plant, natural conditions, sedentary population, semi-nomadic, mineral fertilizers.

ИЗУЧЕНИЯ ПО ВОПРОСАМ ТРАДИЦИОННОГО ХОЗЯЙСТВА ЗЕМЛЕДЕЛЬЦЕВ НАРОДЫ УЗБЕКОВ В КОНЦЕ XIX ВЕКА – НАЧАЛЕ XX ВЕКА

Аннотация

В данной статье анализируются материалы относящихся к истории земледельческого хозяйства узбекского народа авторами которых является ученый эпохи Российской империи а также сопоставляется газетные статьи с историографической точки зрения.

Ключевые слова: Хозяйство, традиционный хозяйство, земледелие, земледельческое орудие, система орошения, растение, природный условия, оседлое население, полукочевник, минеральный удобрения.

O'ZBEK XALQINING AN'ANAVIY DEHQONCHILIK XO'JALIGINING O'RGANILISH MASALASI (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARI)

Annotatsiya

Maqolada Rossiya imperiyasi davri tadqiqotchilari tomonidan yozilgan o'zbek xalqining dehqonchilik xo'jaligi an'analari doir materiallari: ilmiy adabiyotlar hamda xisobot shaklidagi materiallari, joriy matbuot sahifalarida chop etilgan maqolalari mazmuni tarixshunoslik nuqtai nazaridan tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: xo'jalik, an'anaviy xo'jalik, dehqonchilik, dehqonchilik qurollari, sug'orish tizimi, sug'orish inshooti, tabiiy muhit, o'troq, yarim o'troq, mineral resurslar.

Kirish. Har qanday xalqning taraqqiyoti uning xo'jalik yo'nalishiga bog'liq holda shakllangan. Xususan, o'zbek xalqining ajdodlari ham bir necha asrlar davomida boy xo'jalik an'analari: dehqonchilik, hunarmandchilik va chorvachilik xo'jaligini yuritib, bu sohalarini rivojlantirib kelganlar.

Ushbu xalqning turmush tarzi, xo'jalik hayotining turli sohalarini tarixiy-etnologik nuqtai-nazardan o'rganish doimo ilmiy-amaliy ahamiyatga molik masala sifatida qarab kelingan. Kishilar hayot tarzi, xo'jaligi, iqtisodiy hayoti, o'lkaning o'ziga xos tabiiy-geografik xususiyatlari hamda iqlim sharoitiga mos faoliyati XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Rossiya imperiyasi hukmronligi davrida olim va tadqiqotchilar, sayohatchilar, o'lkashunoslar tomonidan ham o'rganilgan.

Shu o'rinda aytish joizki, XIX-asrning ikkinchi yarmi va XX-asrning boshlarida yaratilgan tadqiqot ishlari orasidan aynan o'zbek xalqining an'anaviy xo'jaligining yirik tarmog'i xisoblangan dehqonchilik masalalariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilish va ilmiy iste'molga kiritish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Ushbu maqolada, Rossiya imperiyasining ayrim tadqiqotchilari tomonidan mahalliy aholining turmush tarzida katta ahamiyatga ega bo'lgan va o'zbek xalqi hayotining asosiy iqtisodiy manbaini tashkil qiluvchi dehqonchilik an'analari ilmiy tadqiqotlarda yoritilganlik holati atroflicha tahlil qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'lka Rossiya imperiyasi tomonidan istyelo etilgandan so'ng qator rus tadqiqotchilari, sayyohlari, geograflari Turkiston o'lkasining o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumotlar to'plash uchun yuborilganlar. Tadqiqotchilar o'z faoliyatlarini amalga oshirishlari bilan bir vaqtda o'lka xalqlari turmush tarziga oid xususan, xo'jalik hayoti haqidagi talaygina ma'lumotlarni to'plaganlar. Ular jumlasiga A.P.Xoroshxin [1,2,3], A.F.Middendorf[5], A.I.Shaxnazarov[6], K.Palen[7,8,9]larning olib borgan ilmiy faoliyatlarini natijalari sifatida chop etilgan ishlarini kiritish mumkin.

Xususan, o'zbek xalqining o'sha davrdagi hayoti, turmush tarzi haqida A.P.Xoroshxin qimmatli sof etnografik ma'lumotlarni keltirib o'tadi. Muallifni mahalliy xalqlar turmush tarzini yaqqol ko'rsatuvchi dehqonchilik, chorvachilik, sug'orish an'analari, sug'orish tizimlari, an'anaviy chorvachiligi, yarim o'troq, va o'troq aholi hayoti, ularning o'ziga xosligi, soliq va vaqf mulklarining ahvoli kabi masalalar jalb etadi[1,2,3].

XIX asrning 80-yillarida Farg'ona vodiysida bo'lgan rus tadqiqotchisi A.F.Middendorf o'zining «Ocherki Ferganskoy dolini» nomli asarida vodiyning tabiiy-geografik sharoitini ta'riflash bilan birga, aholining xo'jalik faoliyati, xususan dehqonchilik va chorvachilik mashg'ulotlari haqida ham ma'lumotlar keltirib o'tadi[5]. Ushbu ishda muallif dehqonchilik masalalariga maxsus to'xtalgan bo'lib, haydaladigan yerlar, mineral va mahalliy o'g'itlar, sug'orish tizimi va shakllari, dehqonchilik qurollari, tuproqqa ishlov

berish hamda mahalliy aholining madaniy taraqqiyoti va taraqqiyot imkoniyatlari to'g'risida ma'lumotlar keltirgan. Shu bilan birga hududdagi dehqonlar, ularning joylashuvi, xo'jalik faoliyati va imkoniyatlarini yoritib bergan.

Yana bir sur tadqiqotchisi A.I.Shaxnazarov tomonidan 1908 yilda nashr etilgan «Selskoye xozyaystvo v Turkestanskoy kraye» nomli asari ham o'zbek xalqining dehqonchilik mashg'uloti haqida ko'plab ma'lumotlar beradi. Xususan, muallif asarning «Zemledelcheskaya orudiya i mashini» deb nomlangan bobida, yerga ishlov berishning eng oddiy va umumiy quroli «Ketmon» ekanligini ta'kidlaydi va ketmonni tuzilish tarkibi, uni tayyorlash usuli va bajaradigan funktsiyalariga to'xtalib o'tgan. Uning «Bu qurol shunchalik qulayligi sababli, hududga ko'chib kalgan xalqlar o'zlarining belkuraklarini o'rniga ketmondan foydalana boshlaganlar» [6]. kabi fikrlari ayniqsa ahamiyatlidir.

Shu bilan birga Rossiya imperiyasi boshqaruvi ya'ni, Podsho amri bilan Senator, Gofmeyster Graf K.K.Palen Turkiston o'lkasida bo'lib, o'lka hayotining ko'plab sohalari bo'yicha taftish ishlarini olib borgan. Xususan, davlat mulklari, umumdavlat xo'jaligi, o'lkaning boshqarish, xalq xo'jaligining xarakteristikasiga oid materiallar, Turkiston o'lkasining xalq sudi, viloyatlar boshqaruvi, Turkistonning sug'orish tizimi, Turkistonga rus millati vakillarini ko'chirish, yer solig'i-o'lpon, uyezdlar boshqaruvi, xavfsizlik va o'quv jarayoniga oid masalalar bo'yicha tekshiruv natijalaridan kelib chiqib bir qancha asarlar yozgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Aytish joizki, A.P.Xoroshxin o'zining «Sbornik statey kasayushixsya do Turkistanskogo kraya» nomli asarida Qo'qon bozori haqida bir qancha ma'lumotlar keltirishi barobarida o'zbek xalqi tomonidan yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlari xususida ham to'xtalib o'tadi[3]. Tadqiqotchining ushbu ishida aynan o'zbek xalqining dexonchilik an'anasi asosiy o'rin egallamasada bozorda sotilgan dehqonchilik mahsulotlarining turlari va sifat darajalari o'sha davr dehqonchilik madaniyati darajasini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etgan.

A.F.Middendorfnig «Ocherki Ferganskoy dolini» nomli asari bilan tanishish jarayonida, asosiy o'rinda tuproqning xususiyatlari, uning kimyoviy tuzilishi va mineral boyliklari, suv resurslari, uning imkoniyatlari va istiqbollari o'rganilganligini kuzatish qiyin emas. Shunga qaramay, dehqonchilik qurollari, yerga ishlov berish shakllari, sug'orish inshootlari va sug'orish tizimi, dehqon aholining turmush tarzi va xo'jalik an'alariga doir qimmatli tarixiy va etnografik ma'lumotlarni keltirilishi maqola mavzusining asosiy o'rganishi zarur bo'lgan adabiyotlardan biri ekanligini belgilaydi.

Aytish joizki, tadqiqotchi Farg'ona vodiysi dehqonchilik mashg'uloti haqida qator qimmatli ma'lumotlarni keltirib, mahalliy aholining mehnat qurollaridan biri xisoblangan ketmonning universalligini ta'kidlaydi. Undan tashqari, yerning shudgorlashda ishlatilgan omochni tuzilish sxemalarini rasmlar bilan ifodalaydi[5]. Qolaversa, sug'orilish tizimini o'rganib bo'lib, unga oid xulosalari alohida ahamiyatga egadir. Sug'orish tizimi haqida "...asosiy fikrni aytganda, keyingi mukammal darajadagi yutuqlarimizning asosini mahalliy aholining tajribasi tashkil etadi"[5] kabi fikrlari alohida ahamiyatga ega. Bilamizki, ruslar tomonidan O'rta Osiyo hududida paxtachilikni rivojlantirish maqsadida olib kirilgan mablag'larni ko'proq foyda undirish uchun, sug'orish tizimiga oid bir qancha islohotlarni amalga oshirish uchun kiritganlar. Bu islohotlarda esa mahalliy aholining boy tajribasi az qotgan va tayanch vazifasini o'tagan. Chunki, muallifning quyidagi fikri ham buning isbotidir. Xususan, "...mahalliy aholi suvni boshqarish kasbi bo'yicha katta tajribaga ega" [5].

Shaxnazarov A.I. tomonidan Turkiston mahalliy aholisining dehqonchilik ishlarida foydalanadigan mehnat

qurollari haqida bildirgan fikrlari yuzasidan xulosa qilganda dehqonchilik an'analari bilan shug'ullanayotgan o'troq aholi mehnat qurollari sodda (qoloq), kamchiqim ko'rinsada mehnat qilish uchun qulay va o'ziga xos ekanligini anglashimiz mumkin. Uning fikrlari o'sha davr mehnat qurollarini rasmlarini ham keltirilishi bilan yanada qimmatli xisoblanadi. Undan tashqari mehnat qurollarini boshqa xalqlar foydalanadigan mehnat qurollari bilan solishtirilishi o'sha davr dehqonchilik qolaversa aholining hunarmandchilik madaniyati darajasini ham ko'rsatib beradi. Bu xususida, «yerni shudgor qiluvchi qurol «omoch»» deb nomlanishini ta'kidlab, omochni «kavkazorti xududlarida qo'llaniladigan «alat»ga o'xshash» [6] ekanligini ta'kidlaydi.

Palen o'zining «Orosheniye v' Turkestan» deb nomlangan xisobot asarida [7] Turkiston o'lkasining umumiy geografik tuzilishi va statistikasiga oid ma'lumotlarni keltirib o'tadi. Uning ma'lumotlaridan hududning tuprog'i va iqlimi, sug'orish manbalari va asosiy sug'orish kanallari: Norin, Qoradaryo, Sirdaryo, Angren, Chirchiq, Zarafshon va Amudaryo sug'orish tarmoqlari (o'zanlari)ga oid xulosalar o'rin olgan. Qolaversa, suv toshqinlari, gidrometrologiya ma'lumotlari va Turkistonning sug'orilishi bo'yicha statistik ma'lumotlar ko'rsatib o'tilgan. Statistik ma'lumotlarning viloyatlar va uyezdlar kesimida keltirilishi ayniqsa ahamiyatga molikdir. Jumladan, Farg'ona, Sirdaryo Samarqand viloyatlari hamda Samarqandning uyezdleri: Samarqand; Katta-Qo'rg'on; Jizzax; Xo'jand hududlarining sug'oriladigan yerlari va sug'oriladigan yerlarga yetkazib berilgan suvning miqdori va unga ketgan xarajatlari qamrab olingan[7].

Palenning xisobot natijalari asosida keltirilgan ma'lumotlar Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosatini uzoq maqsadli rejalariga asoslangan bo'lsada o'rganilayotgan davr dehqonchilik hayotini turli jabhalarini yoritishimiz uchun katta ahamiyat kasb etadi. Xususan, Sirdaryo, Farg'ona va Samarqand viloyatlarini suvdan foydalanish tartibi xususan, suvdan foydalanish qoidalari; suvdan foydalanishga oid an'anaviy qonunchilik va amaldagi suv taqsimoti; suvdan foydalanish uchun odatiy navbat; sug'orish qoidalari va sholi maxsulotini sug'orish masalasi; ariq va kanal inshootlari qurilishi va ularning bo'ylariga daraxtlar yetkish masalalari shular jumlasidandir.

Asarda suvchilik ma'muriyati ya'ni, uning tarkibiy tuzilishi; muroblar, ariq-oqsoqollar, irrigatsiya muassasalari, aholining ko'chirish tashkilotlarining suv texnologiyalari bo'limi faoliyati to'g'risida ham ma'lumotlar keltirilgan.

Shuning bilan birga to'plamda Samarqand viloyati Xo'jand uyezdidagi suvsiz cho'llarni o'zlashtirilishi masalalari xam o'rganib chiqilgan bo'lib, unga oid tarixiy ma'lumotlar, kanallarning qazilishiga oid yozma ma'lumotlar, uning moliyaviy jihatlari keltirilgan va suvsiz yerlarni sug'orish bo'yicha umumiy xulosalar ko'rsatilgan.

Asar qimmatli ma'lumotlarga boy bo'lsada u sof etnografik tilda yozilmagan va aksincha joylardagi rus ma'murlari va mahalliy boshqaruvchilar tomonidan amalga oshirilgan ishlar tekshirilgan. Xususan tadqiqot o'tkazilgan hududlar orasida Xorazm, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari to'g'risida ma'lumotlar kam uchraydi va asarning hududiy yondoshuvida ushbu viloyatlar qamrab olinmagan. Sug'orish tizimiga oid ma'lumotlarning bosh maqsadida Rossiya imperiyasining o'lka yerlaridan foydalanishni istiqbollarga oid xulosalar turgan.

K.K.Palen tomonidan o'tkazilgan nazorat taftish materiallari asosida tayyorlangan yana bir to'plam "Pozemelno-podatnoye delo" asari ham o'rganilayotgan mavzuga oid materiallar sirasiga kirib, unda o'troq hayot kechiruvchi qishloq aholisining va xususiy yer egalari to'plashlari majburiy bo'lgan yer solig'iga oid yig'inlar ya'ni soliqlarga doir tarixiy ma'lumotlar keltirilgan. Asarda joriy

etilgan yangi soliq yig'inlari, yer solig'iga oid yig'inlarni tartibga solish masalalari, yerga oid umumdavlat, umumiy yig'inlar va ularning miqdori masalalari ham yoritilgan. Asarda yerga oid soliqlardan boshqa Sirdaryo, Farg'ona va Zarafshon hududlari aholisining kasb-kori va uning aholi soniga nisbatan taqsimoti to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan[8]. Ushbu asrning o'rganish jarayonida o'troq dehqonlarning yerga egalik shakllari va u yerlardan foydalanish uchun to'lanadigan soliq turlari va miqdorlari xaqida ko'plab ma'lumotlarni olishimiz mumkin.

Tahlil va natijalar. A.F.Middendorfnig Farg'ona vodiysi hududi va aholisi to'g'risida bergan ma'lumotlari muammo doirasidagi adabiyotlar sirasiga kiradi va etnografik yondoshuv asosida yozilganligi uning qiymatini oshiradi.

Shaxnazarov A.I. asarbda qo'l mehnati xaqida ham ma'lumotlar keltirilgan. Xususan, «Turkistonning qishloq xo'jaligi madaniyatini shiddatli rivojida va ishning kengayishida asosiy o'rinni o'simlik taglarini yumshatish va parvarishlash egallaydi» [6]. degan fikrlari o'simlik taglarini yumshatish, qolaversa, xosilni ekishdan tortib to xosilni yig'ib olishgacha bo'lgan jarayonlar qo'l mehnatiga asoslangan ekanligini anglatadi. Bu esa ko'plab ishchi kuchini talab etadi.

Asarda sug'orish tizimi xaqida ham ko'plab ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, unda O'rta Osiyoning tabiiy iqlim sharoiti ya'ni quruq xavo va yuqori bug'lanish jarayoni o'simliklarning suv iste'molini oshirishini hamda yog'ingarchilikning kamchilligi sun'iy sug'orish tizimi asosida dehqonchilik an'alarini rivojlantirish zaruratini tug'dirishligini anglatadi. Xususan, muallif sun'iy sug'orishga asoslangan yerlarni ko'pligini quyidagi fikrlar bilan to'ldiradi: "Turkiston hududidagi sun'iy sug'orishga asoslangan yerlarning umumiy maydoni boshqa davlatlar bilan solishtirganda Xindistondan keyingi ikkinchi o'rinda turadi"[6]. Bu jarayon hududda su'iy sug'orishga asoslangan yer maydonlari keng ekanligini anglatadi.

K.K.Palening yana bir "Xarakteristika narodnago xozyaystvo v Turkestan" nomli asari XIX-asr oxiri va XX-asr boshlaridagi o'zbek xalqining an'anaviy xo'jaligi masalalarini o'rganishda qimmatli ma'lumotlarga boy xisoblanadi[9]. Asarda hududning holati, uning aholisi, yerga egalik shakllari

va yerdan foydalanish masalalari va uning tartibi masalalariga to'xtalib hudud bo'yicha geografik va fizik nuqtai nazari bilan yondoshganligi ilmiy aniqliklar asosida ma'lumotlar keltirishligiga sabab bo'lganligini anglash mumkin. Xususan, hudud yerlarini tekislik qismi, tog' va tog'oldi zonalariga ajratib ko'rsatgan holda tabiiy iqlim sharoiti, yerning tarkibiy tuzilishi, mineral boyliklarining miqdori, neft va boshqa tabiiy resurslari to'g'risida viloyatlar kesimida statistik ma'lumotlar keltirib o'tiladi.

Qolaversa, aholining hududlar (viloyatlar va uning tarkibiga kiruvchi uyezdlar) bo'ylab joylashuviga oid ma'lumotlar ko'rsatilgan bo'lib, yerlik aholi tarkibi va ko'chirib keltirilgan turli millat vakillarining soni xususidagi statistik ma'lumotlari keltirilgan. Asarda yerga egalik shakllariga ham alohida to'xtalib, davlat, xususiy, vaqf va mavat yerlariga ajratadi va ularni xarakterlaydi.

Palen K.K. tomonidan nashr etilgan "Zemskoye Xozyaystvo" nomli asarida xam o'zbek xalqi xo'jalik yuritish shakllariga oid ko'plab ma'lumotlar keltirilgan. Asarda Turkiston o'lkasining uch asosiy viloyatlarining umumdavlat majburiyatlarini aks ettirilgan bo'lib, ishlab chiqarishga sarflangan xarajatlar va undan tushgan daromadlar taxlil etilgan.

Xulosa va takliflar. O'rganilgan asarlar tahlilidan bilamizki, mazkur davr tadqiqotchilarining xo'jalik an'alariga e'tibori zamirida Rossiya imperiyasini mustamlakachilik siyosatini mustahkamlash va o'lkaning dehqonchilik yerlari va resurslaridan unumli foydalanish yotadi. Xususan, Palen K.K. tomonidan keltirilgan xisobot shaklidagi ma'lumotlari, A.P.Middendorf va A.I.Shaxnazarovlarning tahlilga tortilgan asarlari o'lka xalqlari xo'jaligiga oid qimmatli ma'lumotlarni bersada yuqoridagi fikrimizni tasdiqlaydi. Shunga qaramay, ushbu asarlar o'z davri tadqiqotchilari tomonidan kuzatuv va tajribalar asosida yoritilganligi va aniq dalillar asosida tahlil etilganligi hamda ishda statistik ma'lumotlar va muammoga oid suratlar aks etganligi, o'zbek xalqi an'anaviy xo'jaligi xususan dehqonchilikka oid ma'lumotlarni boyitish uchun ahamiyatli xisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Хорошхин А.П. Историко-этнографические этюды. Народы Средней Азии // Туркестанские ведомости. 1871, № 1.С.432.;
2. Хорошхин А.П. Историко-этнографические этюды. Народы Средней Азии // Туркестанские ведомости. 1871, № 1.
3. Хорошхин А.П. Сборник статей, касающихся до Туркестанского края. – Спб., 1876.
4. Хорошхин А.П. Кызыл-кумский дневник // Сборник статей, касающихся до Туркестанского края. – Спб., 1876. – С. 398-402.
5. Миддендорф А.Ф. Очерки Ферганской долины СПб. 1882. С.606.
6. ШахназаровА.И. Сельского хозяйство в Туркестанском крае. СПб. 1882. с.512.;
7. Пален К К. Орошение в Туркестане (Отчёт по ревизии Туркестанского края). – Спб., 1910. с. XXVI.// Поземельно-податное дело (Отчёт по ревизии Туркестанского края). – Спб., Моховая., 1910. С.598.;
8. Пален К К. Поземельно-податное дело (Отчёт по ревизии Туркестанского края). Спб., Моховая., 1910. С. 598.
9. Пален К К. Характеристика народного хозяйства в Туркестань (Отчёт по ревизии Туркестанского края). – Спб., Сенатская типография, 1911. С. 598.



UDK:94.05

Ozodbek RADJABOV,
O‘zbekiston Milliy universiteti katta o‘qituvchisi
E-mail:ozodbek.radjabov.94@inbox.ru

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti professori S. Shadmanova taqrizi asosida

SITUATION OF RAILWAYS IN TURKMENISTAN IN THE YEARS OF INDEPENDENCE

Annotation

Today, when the processes of integration between the countries of the world are developing and improving day by day, researching the issues of internal and external communications and infrastructure is becoming an urgent task. When determining the economic potential of countries, it is customary to pay attention to the level of coverage of the population with transport and infrastructure networks as a separate index. Currently, the transport system, in particular, the railway network, has a significant impact not only on the economic situation of the countries, but also on the lifestyle of the population. The most convenient and relatively resource-saving network for passenger and cargo transportation is undoubtedly the railway system. In particular, the importance of railways is even higher in the economy of regions and countries located far from international transit trade routes.

Key words: Railways of Turkmenistan, communication, infrastructure, Advisory Council of Elders, Tejen-Sarakhs, Turkmenabad-Atamurat, Dashoguz-Kunyaurgench.

ПОЛОЖЕНИЕ ЖЕЛЕЗНЫХ ДОРОГ ТУРКМЕНИСТАНА В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

Аннотация

Сегодня, когда процессы интеграции между странами мира развиваются и совершенствуются день ото дня, исследование вопросов внутренних и внешних коммуникаций и инфраструктуры становится актуальной задачей. При определении экономического потенциала стран принято обращать внимание на уровень охвата населения транспортно-инфраструктурными сетями как на отдельный показатель. В настоящее время транспортная система, в частности сеть железных дорог, оказывает существенное влияние не только на экономическое положение стран, но и на образ жизни населения. Наиболее удобной и относительно ресурсосберегающей сетью пассажирских и грузовых перевозок, несомненно, является железнодорожная система. В частности, значение железных дорог еще выше в экономике регионов и стран, удаленных от международных транзитных торговых путей.

Ключевые слова: Железные дороги Туркменистана, связь, инфраструктура, Консультативный совет старейшин, Теджен-Серахс, Туркменабад-Атамурат, Дашогуз-Куняургенч.

MUSTAQILLIK YILLARIDA TURKMANISTONDA TEMIR YO‘LLARNING HOLATI

Annotatsiya

Jahon mamlakatlari o‘rtasida integratsiya jarayonlari kundan-kunga rivojlanib, takomillashib borayotgan bugungi kunda ichki va tashqi kommunikatsiya aloqalari, infratuzilma masalalarini tadqiq etish dolzarb vazifaga aylanib bormoqda. Mamlakatlarning iqtisodiy salohiyatini belgilashda transport va infratuzilma tarmoqlari bilan aholining qamrab olinishi darajasiga alohida indeks sifatida e‘tibor qaratilishi odat tusiga kirgan. Ayni paytda transport tizimi, xususan, temir yo‘llar tarmog‘i davlatlarning nafaqat iqtisodiy holatiga, balki, aholi turmush tarziga ham o‘zining sezilarli ta‘sirini ko‘rsatib kelmoqda. Yo‘lovchi va yuk qatnovidagi eng qulay va nisbatan resurs tejovchi tarmoq shubhasiz temir yo‘llar tizimidir. Ayniqsa, xalqaro tranzit savdo yo‘llaridan uzoqda joylashgan mintaq va mamlakatlar iqtisodiyotida temir yo‘llar ahamiyati yanada yuqoriroqdir.

Kalit so‘zlar: Turkmaniston temir yo‘llari, kommunikatsiya, infratuzilma, Oqsoqollar Maslahat Kengashi, Tedjen-Saraxs, Turkmanobod-Atamurat, Dashoguz-Kunyaurgench.

Kirish. Dunyoda muayyan mamlakat yoki mintaqalarning kommunikatsiya va transport tuzilmalari yo‘nalishlarida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu jumladan, Markaziy Osiyo mintaqasining moddiy va kishilik resurslariga eng boy hududi hisoblangan O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, xalq xo‘jaligi tarmoqlarining sobiq sovet davridagi ahvoli, jumladan, transport tizimi, temir yo‘llarning respublika iqtisodiy hayotida tutgan o‘rni, rivojlanish bosqichlari, tarmoqning sanoatdagi mavqei, aholining turmush darajasiga ta‘siri, temir yo‘l shahobchalari va tarmoq yo‘llarining takomillashuvi jarayonlari kabi muammolarni ustuvor mavzular sifatida o‘rganayotganligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. M. Rozin, V.Ryabtsev, V.S.Svechkaev, A.Hickson, B.Wirth, G.Morales, D.Bauersoks, D.Kloss, L. Staff kabi tadqiqotchilarning ilmiy

ishlarida Turkmaniston Respublikasida milliy transport va logistika tizimlarini barpo qilish masalalari tahlil qilingan[1].

P.V.Kurenkov, A.F.Kotlyarenko, O.V.Moskvichev, E.E.Moskvicheva, M.A.Nekhaev kabilarning ilmiy izlanishlarida esa mamlakatdagi transport-logistika tizimidagi murakkab masalalarni oqilona boshqarish muammolarini ko‘rib chiqish muhimligi ta‘kidlangan[2].

O.D.Pokrovskaya, R. Fedorenko, T. S.Titova, V. M. Samuylov[3] kabi olimlar xalqaro transport koridorlari va ularning logistika infratuzilmasi faoliyatini tashkil etishdagi ahamiyati masalalarini tahlil qilganlar.

Shu bilan birga, infratuzilmaning hozirgi holatini, shuningdek, transport va logistika sohasini rivojlantirish tendensiyalari va istiqbollarini tahliliy o‘rganish obyektiv ravishda talab etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur ilmiy maqola qiyosiy tahlil, tarixiylik, ilmiylik, uzviylik kabi metodlarga


tayinlangan holda yozilib, unda Turkmanistondagi temir yo'l tarmoqlarining holati o'rganilgan.

Tahlil va natijalar. "Turkmanistonning 2020-yilgacha iqtisodiy, siyosiy, madaniy taraqqiyoti Strategiyasi" dasturi 2003-yil 15-avgustda XIV Oqsoqollar Maslahat Kengashi va "Galkinish" umummilliy harakatining qo'shma yig'ilishida qabul qilingan bo'lib, unda mamlakatning transport, shu jumladan temir yo'llar borasidagi islohotlar rejasi ham qayd etilgan. Masalan, Serdar-Etrek-Gudriolum, Mari-Serxetabat, Tajan-Saraxs, Turkmanboshi-Garabog'ozchegara (Qozog'iston bilan chegaradagi) avtomobil yo'llarini ta'mirlash, "Shimol-Janub" transport koridorining bir qismi bo'lgan, Qozog'iston bilan chegarada joylashgan Turkmanboshi-Bereket-Etrek temir yo'l liniyasini harakatga keltirish, mamlakatning ichki yo'li hisoblanuvchi Ashxobod-Qoraqum-Doshoguz temir yo'l liniyasini barpo qilish, Tedjen-Bobodayxon temir yo'l liniyasini ishga tushirish kabi maqsadlar aks ettirilgan[4].

Turkmanistonda asosan temir yo'l, avtomobil, suv va quvur transporti mavjud. 2008-yildagi statistik ma'lumotga ko'ra, mamlakatda umumiy tashilgan yukning umumiy miqdori 49,206.9 mln.tonna km bo'lib, shundan 56 foizi quvur, 24 foizi temir yo'llar, 20 foizi avtomobil transporti orqali tashilgan. Yo'lovchi qatnovining 84 foizi avtomobillar, 9 foizi aviya transport, 7 foizi temir yo'llar orqali amalga oshirilgan.

2002-yildagi ma'lumotga ko'ra Turkmanistondagi avtomobil yo'llarining umumiy uzunligi 58 592 km bo'lib, uning 80 foizi asphalt qoplamaga ega (47 577 km). "Investment Guide" xalqaro tashkilotining ma'lumotiga ko'ra, avtomobil yo'llari orqali yiliga 5 mln tonna yuk va 1 mlrd yo'lovchi qatnovi amalga oshiriladi. Davr oralig'ida Turkmanboshi-Ashxobod-Mari-Turkmanobod-Ashxobod-Qaraqum-Dashoguz magistral yo'lini ta'mirlash ishlari ketgan. Qurilish 2010-yil oxiriga tugallanishi belgilangan.

Temir yo'llarning umumiy uzunligi 3000 km bo'lib, undan 1200 km lik qismi 1992-2008-yillarda barpo qilingan. "Investment Guide" xalqaro tashkilotining ma'lumotiga ko'ra, 80 foiz xalqaro qatnov, import va eksport temir yo'llar orqali amalga oshiriladi. 2007-yildagi statistik ma'lumotga ko'ra, temir yo'llar orqali joriy yuk qatnovi 23.4 mln tonna, yo'lovchi qatnovi 5.8 mln kishini tashkil qilgan. Turkmaniston temir yo'llar tarmog'I yildan-yilga transit qatnovida muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Xususan, Saraxs temir yo'l stansiyasidan bir kunda 400 ta poyezd o'tadi[5].




Temir yo'l qurilishidagi portlash effekti asosan yuk qatnoviga ixtisoslashgan temir yo'l tarmog'ida kuzatilgan. 2008-yilda mamlakat temir yo'llar tizimi umumiy qatnovning 42,1 foizi qurilish materiallari, 37,2 foizi neft mahsulotlari zimmasiga to'g'ri kelgan.

Mustaqillik yillarida Tedjen-Saraxs, Turkmanobod-Atamurat, Dashoguz-Kunyaargench temir yo'l liniyalarining barpo qilinishi boshlangan. 2008-yilda Ashxobod-Qoraqum-Doshoguz temir yo'l liniyasi qurib bitkazilgan.

Transport sektorida rasmiy Ashxobod asosiy e'tiborini "Shimol-Janub" transport koridoriga qaratmoqda. Ushbu magistral tarmoq mamlakatni Qozog'istonning Uzen, Qizilqiya hududlarini Eron bilan bog'laydi. Transport

koridorining Bereket-Etrek-Gurgan yo'nalishi 327 km bo'lib, uning 256,6 km qismi Turkmaniston hududidan o'tadi. Bereket-Qizilqiya-Uzen tarmog'I esa 571 km bo'lib, uning 441 km qismi Turkmanistondan o'tadi[6].

Bereket-Etrek-Gurgan yo'nalishida 7 ta stansiya va qatnov yo'lagi barpo qilish maqsad qilingan. Shuningdek, Etrekda transport deposi, vagon tarkiblari uchun servis markazi barpo qilinishi rejaga kiritilgan. Bereket-Qizilqiya-Uzen yo'lida esa 10 ta stansiya va qatnov yo'lagi barpo qilinib, qatnov masofasi 99 kmga qisqartirish reja qilingan. Qizilqiya stansiyada vagonlarning texnik ta'minotini amalga oshiruvchi markaz barpo qilinishi belgilangan.



Transport sektoridagi islohotlarni moliyalashtirish uchun Jahon bankining 1997-yil 27-mayda tasdiqlangan "Urban transport Project" loyihasi hamda Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining "Turkmenbashi Port Development" nomli 1997-yil 16-dekabrda loyihalari moddiy ta'minotning bir qismini qoplagan[7].

Turkmanistonda transport-logistika tizimini tahlil qilishning dolzarbligi tovar ayirboshlash jarayonlarining faollashishi, tranzit hajmining o'sishi va mamlakatda bir qator logistika qurilish loyihalarini amalga oshirish bilan belgilanadi. Masalan, o'tgan 2021 yilning o'zida Turkmanistonda xalqaro yuklarni tranzit tashish hajmi 2020-yilga nisbatan 3,5 baravarga oshdi. Bundan tashqari, qisqa muddatda mamlakat Yevropa va Osiyodagi eng yirik transport-logistika markazi sifatidagi mavqeyiga ega bo'lmoqda. "Yetti yo'l chorrahasi" deb atalgan respublika hududida tarixan Sharq va G'arb savdo tizimlarini bog'lovchi ko'plab savdo yo'llari o'tgan. XXI asrning energetika magistrali – Turkmaniston-Xitoy gaz quvuri, shuningdek, yo'nalishlari Buyuk Ipak yo'lining asosiy yo'nalishiga to'g'ri keluvchi Turkmaniston-Afg'oniston-Pokiston-Hindiston kabi yirik logistika loyihalari Turkmaniston transport-logistika tizimini jadal rivojlanayotganidan shundan dalolat beradi.

Mamlakat iqtisodiyotida xizmat ko'rsatish sohasi va sanoat ustunlik qiladi, bu esa transport va logistikani rivojlantirish masalalarining alohida rolini belgilaydi. Yangi geosiyosiy sharoitdagi logistika zanjirlari, savdo-iqtisodiy aloqalarni qayta yo'naltirish nuqtai nazaridan Turkmanistonning transport va logistika tizimlarini tarixiy tahlil qilish zaruriyatga aylanib bormoqda. Yuk va tovar oqimlari uchun xalqaro tranzit va logistika xizmatlarini tashkil etish har qanday mamlakat uchun strategik ahamiyatga ega.

Turkmanistonning transport-logistika tizimini izchil rivojlantirish hamda tranzit salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish uchun mamlakatda keng imkoniyatlar mavjud. Turkmanistonning geografik joylashuvi, strategik afzalliklarini hisobga olgan holda, davlat hududida TRASEKA, OSJD VI va X, shuningdek, CAREC II va III kabi transport koridorlari joylashgan.

Buyuk ipak yo'lining ajralmas qismi bo'lgan Turkmaniston bugungi kunda uning innovatsion rivojlanishida muhim rol o'ynamoqda. Mamlakat hududida shakllangan transport-logistika tizimlarini rivojlantirishning asosiy ustuvor yo'nalishi xususiy sektorni faollashtirish, moliya sektorini jadal rivojlantirish va mintaqaviy hamkorlik asosida tovar ayirboshlashni jadallashtirish orqali boshqa davlatlar bilan

integratsiyalashuvdan iborat. So'nggi yillarda Turkmaniston Kaspiy bo'yi davlatlarini transport infratuzilmasi sohasida birlashtirishni asosiy maqsad qilib qo'ydi va Kaspiyni xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan asosiy, kuchli transport va tranzit xabga aylantirish tashabbusi bilan chiqdi[8].

Respublikaning Yevroosiyo transport kommunikatsiyalarini rivojlantirishdagi samarali ishtiroki Turkmanistonning Transkaspiy xalqaro transport yo'nalishida, Lazurit yo'nalishida yuk tashish hajmini oshirish va logistika salohiyatini mutanosib ravishda oshirish bo'yicha tutgan pozitsiyasidan dalolat beradi.

Turkmanboshi xalqaro dengiz portini qurish, qator ichki avtomobil va temir yo'llarni qurish, xalqaro tashishni huquqiy qo'llab-quvvatlashning xalqaro standartiga muvofiq rivojlantirish va yaxshilash borasida ishlarni umumiy ma'noda modernizatsiya deb atash mumkin.

Turkmaniston hududidan import qilinadigan tovarlar, birinchi navbatda, konteyner va umumiy yuk tashish uchun yaroqli bo'lgan eksport qilinadigan mahsulotlarning 25 foizini tashkil etadi. Shuni ta'kidlash kerakki, Turkmanistondagi eksport va import ko'rsatkichlari ekvivalent emas. Chunonchi, tayyor mahsulotlarning eksport qilinadigan qismi tovar aylanmasi umumiy hajmining atigi 5 foizini tashkil qiladi. Shu munosabat bilan tayyor mahsulotlarning eksport salohiyatini ro'yobga chiqarish maqsadida konteynerlashtirish uchun qisman yoki to'liq mos bo'lgan Turkmanistonning transport-logistika infratuzilmasi imkoniyatlarini yanada oshirish talab qilinmoqda.

Kaspiy dengizi orqali Bokudan Turkmanboshiga o'tuvchi savdo yo'lidan foydalanish Eron hududi orqali o'tuvchi umumiy 1400 km quruqlikdagi transport yo'lini tejashga olib keladi. Ta'kidlash joizki, bu Turkiya davlati hududidan va Janubiy Kavkaz davlatlaridan Osiyo mintaqasi mamlakatlariga yo'l harakati uchun transport logistikasi nuqtai nazaridan eng qisqa va eng maqbul yo'nalish hisoblanadi. Turkmanboshi Qozog'iston, O'zbekiston, Xitoy va boshqa mamlakatlarning temir yo'l liniyalarini bog'lovchi asosiy transport uzulidir.

Turkmaniston Yevropa va Osiyo o'rtasidagi asosiy transport yo'lagining markazida joylashgan bo'lib, Markaziy Osiyo mamlakatlari va qo'shni mintaqalar o'rtasida savdo-iqtisodiy hamkorlik hamda logistika ta'minotini muvofiqlashtirishga qaratilgan yirik xalqaro va mintaqaviy transport-logistika loyihalarini bir necha bor boshlagan. Turkmanistonning joylashuvi uning muhim tranzit

salohiyatiga ega mintaqaviy logistika yuk tashish markazi sifatida yetakchiligini belgilaydi. Masalan, 2016-yilda 600 kilometr uzunlikdagi Turkmaniston-Afg'oniston-Tojikiston transdavlat avtomobil yo'lining 85 kilometrlik qismida "Atamirat-Imomnazar-Akina" turkman uchastkasi ochildi.

Xulosa va takliflar. Turkmaniston temir yo'llarining SWOT tahlilini asosiy natijalari quyidagilardan iborat:

Kuchli jihatlar:

– Turkmaniston mintaqaviy va xalqaro tashkilotlarga teng huquqli a'zoliqi;

– faol xalqaro temir yo'l yuk tashishlarini nazarda tutuvchi shartnomalarning ratifikatsiya qilinganligi;

– BMT YeIKning6 ta transport konvensiyasini imzolaganligi;

Zaif tomonlari:

– bojxona hujjatlarini qayta ishlashni soddalashtirish va modernizatsiya qilish bo'yicha islohotlarni amalga oshirishning aniq tasdiqlangan qoidalari mavjud emasligi;

– chegara punktlarining transport oqimlari hajmlariga moslashmaganligi;

– savdoni optimallashtirish sohasida davlat tashkilotlari va bojxonalar, xususi sektor o'rtasida ishonchning to'liq yo'qligi;

– yuqori mehnat zichligi va transport hujjatlarini rasmiylashtirish muddatlarining cho'zilib ketishi;

– eksport va import bo'yicha elektron deklaratsiyalarni taqdim etishning raqamli tizimining yo'qligi.

Imkoniyatlar:

– tranzit va savdoni optimallashtirish strategiyasini kompleks amalga oshirish;

– savdo aloqalarini kengaytirish;

– tranzit tashish segmentida davlatning geosiyosiy pozitsiyalarini mustahkamlash;

– milliy transport tizimining yuk tashish va logistika quvvatlarini oqilona yaxshilab borish.

Tahdidlar:

– transport va savdo bo'yicha xalqaro konvensiyalarga integratsiyalashuv muammolarini hal etishda qat'iyatning yo'qligi;

– bojxona idoralarning bir-biriga to'g'ri kelmaydigan qarorlari tufayli vujudga keladigan kechikishlar va uning natijasida xarajatlarning ortib borishi;

– port va terminal majmualarida yuk tashish tartib-qoidalarini raqamli takomillashtirishni amalga oshirishdagi kechikishlar.

ADABIYOTLAR

1. Rozin M., Ryabtsev V., Svechkaev V. Stereotypes of Transport Logistics in Geopolitical Analytics. *Transportation Research Procedia*, Vol. 61, 2022, pp. 285-288. ISSN 2352-1465, <https://doi.org/10.1016/j.trpro.2022.01.047>;
2. Куренков П.В., Котляренко А. Ф. Внешнеторгове перевозки в смешанном сообщении: экономика, логистика, управление [Фореиґн траде транспортатион ин михед траффис: экономисс, логистисс, менеджмент]. Самара: СамГАПС Публ., 2003. 636 п
3. Покровская О. Д. Формирование терминальной сети региона для организатсии перевозок грузов [Форминг тхе терминал нетворк оф тхе регион фор тхе организатион оф сарго транспортатион]. Мосcow, 2012. 189 п. (Ин Руссиан)
4. Среднеазиатский регион – Туркменистан, Киргизия, Таджикистан. Общие исследования. Доклад. Июнь 2009. Японское Агентство Международного Сотрудничества. 東中. JR. 09-004. –С.68.
5. Среднеазиатский регион – Туркменистан, Киргизия, Таджикистан. Общие исследования. Доклад. Июнь 2009. Японское Агентство Международного Сотрудничества. 東中. JR. 09-004. –С.74.
6. Среднеазиатский регион – Туркменистан, Киргизия, Таджикистан. Общие исследования. Доклад. Июнь 2009. Японское Агентство Международного Сотрудничества. 東中. JR. 09-004. –С.81.
7. Среднеазиатский регион – Туркменистан, Киргизия, Таджикистан. Общие исследования. Доклад. Июнь 2009. Японское Агентство Международного Сотрудничества. 東中. JR. 09-004. –С.85.
8. Turkmenistan – serdtse Velikogo Shelkovogo puti [Turkmenistan is the heart of the Great Silk Road]. Available at: <https://turkmenportal.com/blog/13091/turkmenistan--serdce-velikogo-shelkovogo-puti>. (accessed: May 02, 2022). (in Russian)



UDK :94=338.46:621.31:15/20

Gulzora SAIDBOBOYEVA,
O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, PhD
E-mail: gulzora@rambler.ru

T.f.d. G.Taniyeva taqrizi asosida

ELECTRIFICATION IN THE FIRST YEARS OF SOVIET GOVERNANCE AND THE GOERLO PLAN

Annotation

The electric power industry is one of the important branches of the national economy, and from the first years of Soviet power, the restoration of the country began with electrification. In particular, the big plan of GOERLO is actually a universally recognized plan for the electrification of the country, and a number of projects have been put forward for its implementation in Turkestan. In the article, the essence of this process was analyzed in detail by the researcher on the basis of documents from archival funds, historical literature and sources.

Key words: electric power industry, hydroelectric power station, GOERLO, industry, engineer, national economy.

ЭЛЕКТРИФИКАЦИЯ В ПЕРВЫЕ ГОДЫ СОВЕТСКОЙ ВЛАСТИ И ПЛАН ГОЭРЛО

Аннотация

Электроэнергетика – одна из важных отраслей народного хозяйства, и с первых лет Советской власти восстановление страны началось с электрификации. В частности, большой план ГОЭРЛО является фактически общепризнанным планом электрификации страны, и для его реализации в Туркестане выдвинут ряд проектов. В статье сущность этого процесса была подробно проанализирована исследователем на основе документов архивных фондов, исторической литературы и источников.

Ключевые слова: электроэнергетика, гидроэлектростанция, ГОЭРЛО, промышленность, инженер, народное хозяйство.

SOVIET HOKIMIYATINING DASTLABKI YILLARIDA ELEKTRLASHTIRISH VA GOERLO REJASI

Annotatsiya

Elektr energetika xalq xo'jaligining muhim tarmoqlardan biri sanalib, sovet hokimiyatining dastlabki yillaridan mamlakatni tiklash ishlari aynan elektrlashtirish tadbirlaridan boshlangan. Xususan, yirik GOERLO rejasi amalda mamlakatni elektrlashtirishning umum e'tirof etgan rejasi bo'lib, uni Turkistonda amalga oshirishda ham bir qator loyihalar ilgari surilgan. Maqolada tadqiqotchi tomonidan arxiv fondlari hujjatlari, tarixiy adabiyotlar va manbalar asosida ana shu jarayonning mazmun-mohiyati batafsil tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: elektr energetika, gidroelektr stansiyasi, GOERLO, sanoat, muhandis, xalq xo'jaligi.

Kirish. Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida iqtisodining o'tish davri murakkab jarayon bo'lib, u 1) patriarxal, ya'ni asosiy qismi natural dehqon xo'jaligi; 2) asosan o'rtahol dehqonlarning bozor bilan bog'liq kichik mahsulot ishlab chiqarishi; 3) xususiy xo'jalik kapitalizmi; 4) davlat kapitalizmi; 5) sotsializm kabi ijtimoiy-iqtisodiy shakllar bilan tavsiflanib, sovet davlatida o'sha davrda asosan sotsialistik, kichik mahsulotli, kapitalistik shakllardan iborat bo'lgan[1].

1918 yilgi sovet Konstitutsiyasida "xalq xo'jaligining barcha va alohida tarmoqlarining asoslarini va umumiy rejasini qaror toptirish" yangi davlat hokimiyatining asosiy vazifalaridan biri sifatida qayd etilgan[2]. Ayni paytda boshlanib ketgan fuqarolar urushi, sanoatdagi umumiy inqiroz, xomashyo tanqisligi, sovet Rossiyasini birinchi navbatda yoqilg'i, suv zaxiralaridan oqilona foydalanishga, ikkinchi navbatda umumiy masala sifatida davlat xo'jaligining ancha "takomillashgan" shakli – rejali xo'jalikka o'tishga undadi.

Mamlakatda keng miqyosdagi elektrlashtirish uchun ma'lum shart-sharoitlar bo'lishi, buning uchun dastlab kon sanoati, metallurgiya taraqqiyoti, mashina va elektr stansiyalari qurilishini ta'minlash, shuningdek, dehqonchilikni rivojlantirishga yordam berish bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan dolzarb ishlarni yo'lga qo'yish lozim edi. Elektrlashtirish sohasidagi ishlarning samarasi ko'p jihatdan Birinchi jahon urushidan keyingi davrning tasavvur etib

bo'lmaydigan murakkab xalqaro munosabatlariga ham bog'liq edi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Muammoni yoritishda o'tgan davrlar mobaynida chop etilgan ko'plab ilmiy adabiyotlar, shuningdek, arxiv hujjatlariga murojaat qilindi. Xususan, S.G. Strumlin, D.I. Nadocheyev, A.B. Markin, N.P. Nikitin, P.I. Lyashenko asarlaridagi ma'lumotlar, shuningdek, O'zbekiston Milliy arxivi (O'zMA)ning R-27-fond – Turkiston ASSR Xalq xo'jaligi Markaziy Kengashi (ICHX TACCP) hujjatlaridan foydalanildi. "План электрификации РСФСР (Доклад VIII съезду Советов Государственной комиссии по электрификации России)" (Moskva, 1955) hamda I.A. Gladkov muharrirligidagi elektrlashtirishga doir hujjat va materiallar to'plamini muhim adabiyot sanaladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada tizimlashtirish, qiyosiy tahlil, analiz va sintez hamda muammoviy-xronologik kabi ilmiy tadqiqot usullaridan keng foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Sovet hukumati NEPning birinchi yilidayoq milliy respublikalarda sanoatni rivojlantirish masalalariga jiddiy e'tibor qaratishga harakat qilsa-da, 1913 yildan beri butun sanoatning to'rtidan uch qismidan ko'pi Moskva, Peterburg, Ivanovo, Uralda to'plangani holda, Turkiston, Uzoq Sharq va boshqa chekka o'lkalarda sanoat juda zaif ahvolda edi[3].

Sovetlar tuzumi davrining dastlabki yillarida aholi uchun uzatilgan energiya ahamiyatli darajada ko'p miqdorni

tashkil etmas, energiya asosan ko'p iste'mol qiluvchi sohalar – sanoat va ishlab chiqarishning o'lkadagi past sur'ati, borlarining ham juda siyrak va kamligi elektrlashtirish tarmog'ining Ittifoq ko'rsatkichlaridan ancha quyi darajalarda qolib ketishiga sabab bo'ldi.

Bu davrda Rossiya gidroenergiya zaxiralari bo'yicha dunyoda birinchi o'rinni egallasa-da, uning jahon gidroenergetika salohiyatidagi o'rni atigi 10 % dan ziyodni tashkil etgan, xolos. Shunday vaziyatda sovet hukumati iqtisodiyotni jonlantirish uchun energiya manbalaridan samarali foydalanish choralarini qidirdi.

Birinchi jahon urushidan so'ng Turkiston qishloq xo'jaligida bo'lgani kabi uning sanoat tarmoqlari va transporti ham butunlay izdan chiqqan, o'lka sanoati yalpi mahsulotining umumiy hajmi 1920 yilda 1914 yildagiga nisbatan 80 % kamaygan. 1920 yilda sovetlar mamlakatida sanoat urushga qadar bo'lgan miqdordan qariyb 7 baravar kam mahsulot ishlab chiqargan. 1921 yilda cho'yan ishlab chiqarish 1163000 tonnani tashkil etib, bu urushgacha bo'lgan davrda cho'yan ertishning atigi 3 % ga yaqinini tashkil etgan, xolos. Dastlab 1920 yilga ko'ra, toshko'mir qazib olish 7,2 baravar, cho'yan ishlab chiqarish 68, mis eritish 273, neft qazib olish esa qariyb 3 baravarga oshirish rejalashtirilgan[4].

Turkiston rayonini elektrlashtirish rejasini G.K. Rizenkamf boshchiligidagi komissiya tomonidan tayyorlangan bo'lib, uning Turkistonni 1910-1918 yillarda sug'orish tizimlarini o'rgangan rus olimlari, muhandis, irrigator, gidrotexniklarining ko'p yillik izlanishlariga oid asari ancha qiziqarliqdir[5].

1919 yil 14 avgust Xalq Xo'jalik Markaziy Kengashi huzuridagi tashkiliy-nazorat instruktor bo'limi kollegiyasi yig'ilishida Chernyayev shahri (Sirdaryo viloyati)da Qo'shqarota daryosida gidroelektr stansiya qurish imkoniyati yuzasidan yozishmalar muhokama etilgan. Yig'ilish Chernyayev Xalq Xo'jalik Markaziy Kengashiga yozishmalarni ko'rib chiqish uchun jo'natishga va xulosani ogohlantirish sharti bilan qabul qilishga qaror qilgan. Shu tariqa loyiha daryoning buloqlari rejimi va suvdan foydalanishning mavjud tizimini buzmasligi bo'yicha suv xo'jaligi vakillarining roziligini olgan holda ishlab chiqishga tavsiya etilgan. Qarorda yana gidroelektr stansiyaning jihozlash uchun "Xalq Xo'jalik Markaziy Kengashida material va moddiy mablag' yo'qligi"[6] bildirilgan.

1919 yil 23 oktabrda aholini turli, jumladan elektr energetika kasblariga qiziqitirish, ularning xavflilik darajalarini ko'rsatib berish maqsadida Turkiston Respublikasi Markaziy Ijroiya qo'mitasi tomonidan "Mehnatkashlarning ijtimoiy ta'minoti to'g'risidagi Nizom" qabul qilingan.

Unda kasblar xavflilik va zararliligiga ko'ra tavsiflangan bo'lib, elektr yoritish va energiya ekspluatatsiyasida ishlovchi kasb egalari darajasi suvoqchilar bilan bir xil etib belgilangan[7].

Nizomning 3-bandiga ko'ra Mehnat Xalq komissarligining Ijtimoiy ta'minot va mehnat muhofazasi bo'limi o'lkada ijtimoiy ta'minotni bo'yicha bosh organ sanalgan. Nizomning 8-moddasi 1-bandiga ko'ra nafaqa va pensiyalar berish asosiy ish haqi yoki qisman mehnatga yaroqsizligi ortidan undan mahrum bo'lgan yoki ishsizligi tufayli yashashga mablag'i yo'q shaxslarga berilgan[8].

Rossiyaning xo'jalik hayoti uchun Turkiston to'qimachilik xomashyosiga boy istiqbolli imkoniyatlarga ega o'lka sanalgan[9]. Turkistonda doimiy ishchi kuchi kam, qishloq xo'jaligi, ayniqsa paxtachilik tumanlarida qariyb tomorqa shaklidan iborat, juda murakkab, yerlarni sug'orishda

suvni sun'iy (mexanik) usulda uzatish yoki gidrotexnik inshootlar tizimi, to'g'on va kanallarsiz mexanizatsiyalashgan qurilish ishlarini olib borishning imkoni bo'lmagan.

Xalq xo'jaligini elektrlashtirish bo'yicha materiallarni tayyorlash ishlari revolyutsiyaning ilk oylaridayoq boshlangan[10]. Mazkur ishlar qurolli intervensiya va fuqarolar urushi yillarida ham davom ettirilib, ilmiy hamda amaliy jihatdan sovet olimlari va texniklarining xalq xo'jaligini elektrlashtirish sohasidagi ishlari umumlashtirilib, Rossiyaning eng yaxshi ilmiy-texnik kuchlari jalb qilingan holda, alohida loyihalar hamda mamlakatning umumiy elektrlashtirish rejasini ishlab chiqish avj oldirilib, u 1920 yilda GOELRO rejasini tuzish bilan tugallandi. Rejani sovet hokimiyati mamlakat xalq xo'jaligi rivoji bo'yicha istiqbolli reja sifatida baholagan.

1920 yil yanvarida V.I. Lenin G.M. Krjijanovskiyga yo'llagan maktubida Rossiyani elektrlashtirish siyosiy hamda davlat darajasidagi masala, ya'ni proletariatga topshiriq deb baholab, uning (GOELROning – G.S.) iqtisodiy asoslanganlik metodologiyasini ishlab chiqqan[11]. Ushbu vazifani bajarish uchun o'n millionlab mehnatkashlarni jalb qilish, ommani musobaqalashishga chorlash, qo'yilgan maqsadning yutuqlariga erishish – sotsializm qurish uchun barchani fidoyilikka tayyorlash orqali muvaffaqiyatli amalga oshirish mumkinligi belgilangan[12].

1920 yilning fevralida V.I. Lenin tashabbusi bilan Butunrossiya MIQ tomonidan Rossiyani 10-15 yilga mo'ljallangan elektrlashtirish rejasini ishlab chiqish bo'yicha qaror qabul qilindi. Shu maqsadda Rossiyani elektrlashtirish bo'yicha Davlat komissiyasi (GOELRO) tashkil etildi. Rossiyani elektrlashtirish bo'yicha davlat Komissiyasining dasturida (1920 yil 13 mart) alohida tumanlar bo'yicha elektrlashtirish ham ko'rib chiqilgan bo'lib, mahalliy toshko'mir konlari rivojiga ko'proq e'tibor qaratish hamda ulardan elektr ta'minotida foydalanish, iste'mol uchun asosan ko'mir qazib olish, ekin yetishtirish hamda paxtani qayta ishlash, mashinalashgan sug'orish, kommunal xo'jalik taraqqiyotiga qaratish, elektrlashtirish uchun Toshkent vohasi va Farg'ona ko'proq tayyor tumanlar sifatida e'tirof etilishi, Turkistonda suv energiyasining kadastrini yo'lga qo'yish, u bilan bog'liq bo'lgan daryolarning gidrometriya (ishini tegishli tarzda yo'lga qo'yish zarurligi ko'rsatib o'tilgan[13]. Komissiya tarkibida xalq xo'jaligining turli tarmoqlaridan 200 ga yaqin taniqli mutaxassislar ishtirok etgan[14].

1920 yilning 24 martida Ishchi-dehqon mudofaasi Kengashi tomonidan tasdiqlangan "Rossiyani elektrlashtirish bo'yicha komissiya to'g'risidagi Nizom"da Butunittifoq Xalq xo'jalik Kengashi barcha tashkilotlarga GOELROning talabi bilan komissiya ishini amalga oshirish uchun zarur barcha turdagi material va ma'lumotlarni taqdim etishini majburiy etib belgilagan.

Loyihalashtirilayotgan GOELRO rejasida sanoat taraqqiyoti ko'rsatkichlari o'z davri uchun haqiqatan g'ayrioddiy, shu bilan birga keskin o'sish sur'atlarini qamrab olgan edi. GOELRO rejasiga asosan sanoatning alohida sohalarini rivoji bo'yicha vazifalardan biri sifatida 10-15 yil mobaynida mahsulot ishlab chiqarish hajmini urushdan (fuqarolar urushi – G.S.) avvalgi mavjud darajadan 2 baravarga, 1920 yildagi ko'rsatkichni esa 15-16 baravarga oshirish ko'zda tutilgan[15]. Chunki sovet sanoatining 20-yillar boshidagi ko'rsatkichlari 1913 yildagi holatdan ancha quyi darajalarda edi. Sanoat tarmoqlarining o'sish ko'rsatkichlarini quyidagi jadvaldan ham ko'rish mumkin:

Sanoat tarmoqlarining o'sish ko'rsatkichlari[16]

Tarmoq	1913 y.	1920 y.	GOELRO rejasini
Cho'yan eritish (mln t.)	4,2	0,116	8,2
Po'lat ishlab chiqarish (mln t.)	4,2	0,194	6,5
Mis ishlab chiqarish (mln t.)	31,1	0,3	81,9
Ko'mir qazib chiqarish (mln t.)	29,1	8,6	62,3
Rayon elektr stansiyalarining	177	–	1750

quvvati (ming kVt)

1920 yilning 29 dekabrda bo'lib o'tgan Sovetlarning VIII Butunrossiya syezdi fuqarolar urushining tugaganligi va tinch xo'jalik hayotini tiklashga o'tish boshlanganligini e'lon qildi. Syezdda og'ir sanoat, transport, qishloq xo'jaligini tiklash masalalari muhokama qilinib, maxsus komissiya tomonidan ishlab chiqilgan va G.M. Krjijanovskiy ma'ruzasida bildirilgan mashhur Rossiyaning elektrlashtirish rejasi GOELRO rejasi deb atalgan. Syezdda GOELRO rejasi ham muhokama qilinib, u sovet davlati xalq xo'jaligining dastlabki istiqbolli rejasi sifatida ma'qullanadi[17]. Keyinroq 1921 yilning 22 fevralida qisqartmasi Gosplan deb atalgan "Davlat umumreja komissiyasi haqidagi Nizom" qabul qilinishi bilan dastlabki va barcha sa'y-harakatlar Ittifoq organlarining rejali tizimiga kiritilgan[18].

Mamlakatning yangi shakldagi ishlab chiqarish taraqqiyoti uchun elektrlashtirish texnikaviy asos bo'lib, mehnat predmetiga ishlov berish va unga turli usullar tadbiriq etib, mehnat sifati mexanik qurollar bilan emas, energiyaning o'zidan olinadigan bo'ldi. Elektroenergiyaning universalligi shundan iborat ediki, u bevosita mehnat predmetini yaxshilash

hamda mexanik texnologiyani elektr quvvatiga almashtirish imkonini berardi.

Xulosa va takliflar. Mintaqaning geografik jihatdan markaziy Rossiyadan uzoqda joylashganligi, mustamlaka davridan meros bo'lib kelgan qoloq sanoat, 1918-1920 yillardagi iqtisodiy va siyosiy tanglik, mintaqada elektrlashtirish masalalarini turg'unlik holatidan chiqishiga to'siq bo'lib turdi.

GOELRO rejasi Butunittifoqda 1920 yilda boshlangan bo'lsa-da, Turkistonda uni amalga oshirishga 1922 yildangina kirishildi. Bunda ham rejaning Turkistonga bag'ishlangan qismi dastlab agrar soha va sug'orish tizimlarini elektr uskunalar bilan ta'minlashga qaratilgan bo'lib, aslida o'lkaning sug'orish tizimlarini texnik yaxshilash orqali mustamlaka davrida bo'lgani kabi, uni xomashyo zaxirasi sifatida saqlab qolish ko'zda tutilgan.

Hozirgi O'zbekiston hududida elektr energiya sohasida faollik ko'rsatgan mahalliy va boshqa millat vakillarining ro'yxatini tuzish, foto-albomlarini yaratish hamda ularning faoliyatini yorituvchi monografiyalar nashr qilish maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR

1. Гладков И.А. От плана ГОЭЛРО к плану шестой десятилетки. – М.: Изд-во АН СССР, 1956. – С. 32.
2. O'sha asar. – С. 41.
3. Надточеев Д.И. Ленинская политика первоочередная всемерного развития тяжелой индустрии и борьба партии за ее осуществление. – М.: «Знание», 1955. – С. 13.
4. O'sha asar. – С. 13.
5. Qarang: Ризенкамф Г.К. Проблемы орошения Туркестана. Вып. 1. – М., 1921. – 147 с.
6. O'zMA, R-27-fond, 1-ro'uxat, 15-ish, 64-varaqa.
7. Материалы Народного Комиссариата социального обеспечения. Ч. 1. – Ташкент, 1922. – С. 5.
8. O'sha asar. – С. 6.
9. План электрификации РСФСР (Доклад VIII съезду Советов Государственной комиссии по электрификации России). Второе издание. – М.: Гос. изд-во политической литературы, 1955. – С. 637.
10. Batafsil qarang: К истории плана электрификации Советской страны. Сборник документов и материалов 1918–1920 гг. / Под ред. И.А. Гладкова. – М.: Политиздат, 1952. – 590 с.
11. Ленинизм и экономические проблемы коммунистического строительства в СССР / Под ред. д-ра экон. наук Борисова Е.Ф. – М.: Политиздат, 1969. – С. 105.
12. Маркин А.Б. Будущее электрификации СССР. – М.: Гос. изд-во полит. литературы, 1956. – С. 5.
13. Gidrometriya – gidrologiyaning oqar suv parametrlarini o'lchash va uning metodikasi bilan shug'ullanuvchi bo'limi.
14. «Красный архив». Т. 5 (96), 1939. – С. 64-66.
15. Лященко П.И. История народного хозяйства СССР. Т. III. Социализм. – М.: Гос. изд-во политической литературы, 1956. – С. 89.
16. Никитин Н.П. План ГОЭЛРО и зарождение советской экономической географии // Вопросы исторической географии и истории географии. – М., 1973. – С. 41.
17. Гладков И.А. От плана ГОЭЛРО к плану шестой десятилетки. – М.: Изд-во АН СССР, 1956. – С. 67; Лященко П.И. История народного хозяйства СССР. Т. III. Социализм. – М.: Гос. изд-во политической литературы, 1956. – С. 91; Надточеев Д.И. Ленинская политика первоочередная всемерного развития тяжелой индустрии и борьба партии за ее осуществление. – М.: «Знание», 1955. – С. 13; Маркин А.Б. Будущее электрификации СССР. – М.: Гос. изд-во полит. литературы, 1956. – С. 5.
18. Экономическая жизнь СССР. Хроника событий и фактов 1917–1965. В двух томах. Книга первая 1917–1950. – М.: Изд-во «Советская энциклопедия», 1967. – С. 48.
19. Струмлиин С.Г. Планирование в СССР. – М.: Гос. Изд-во полит. литературы, 1957. – С. 31.